

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

SAN'AT FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etilsin»

fakultet dekani

_____ p.f.n. dots. K.M.Gulyamov

«___» _____ 2014 yil

5140900 – KASB TA'LIMI (5211200 – AMALIY SAN'AT) TA'LIM
YO'NALISHI AS - 401 GURUH TALABASI

XOLMAMATOV NORMUROD SHIRINQO'ZIEVICHNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU : KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA HAJMLI BUYUMLARGA
BADIY ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI**

_____ Talaba: N. Xolmamatov

Ilmiy rahbar: Amaliy san'at va uni
o'qitish metodikasi" kafedraasi o'qituvchisi

_____N.N. Tolipov

_____ Taqrizchi: p.f.d, prof. S.S. Bulatov

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Amaliy san'at va uni o'qitish
metodikasi» kafedraasi mudiri

p.f.n., prof. _____ S.S.Bulatov

«___» _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

I BOB. YOG’OCH O’YMAKORLIK SAN’ATI

1.1. Yog’och o’ymakorlik san’ati tarixi.....	7
1.2. Yog’och o’ymakorlik maktablari va ularning namoyondalari.....	12

II BOB. YOG’OCH O’YMAKORLIGIDA FOYDALANILADIGAN XOM-ASHYOLAR VA ASBOB-USKUNALAR

2.1. Yog’och o’ymakorligida foydalaniladigan xom-ashyolar.....	27
2.2. Yog’och o’ymakorligida foydalaniladigan asbob – uskunalari.....	33

III BOB. YOG’OCH O’YMAKORLIGI MASHG’ULOTLARIDA BUYUMLARGA BADIY ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI

3.1. Kasb-hunar kollejarida yog’och o’ymakorligi mashg’ulotlarida o’quvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish.....	38
3.2. Kasb-hunar kollejarida hajmli buyumlarga badiiy ishlov berish texnologiyasi.....	43

XULOSA	49
---------------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	51
---	----

ILOVALAR

KIRISH

Prezidentimiz Islom Karimov o'zlarining «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» asarlarida «Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak» - degan fikrlarni yozadilar.

Insonni-insonligi, birinchi navbatda uning ma'naviy-ahloqiy jihatdan ruhan poklanishi, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, insonning barcha qarashlarining mezoni hisoblanadi. Ma'naviy-ahloqiy inson ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilari, mahalla-kuyi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalqi farovonligi haqida qayg'uradi.

Umuman olganda, O'zbekistonda jamiyatni tubdan yangi asosga qurish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, ma'naviyati bilan bevosita bog'liqdir. Bu haqda prezidentimiz Islom Karimov shunday yozadilar: «O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, birinchidan adolat va tenglikda ko'zga tashlanadi. Inson qadr-qimmatini baholashda ana shu adolat va tenglikka oilada, mahallada, istiqomat qilayotgan joyida, jamoat orasida, ishxonada, ta'minot jarayonida, savdo-sotiq shoxobchalarida, xullas har soniyada muxtojdir. Ayniqsa, rahbar xodimlarning mehnatkashlarga, ma'muriy va huquqiy organlarning odamlarga bo'lgan munosabati va qarashlarida adolat va tenglik yanada ravshan ko'rinadi.

«Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidir» -deganda prezidentimiz, O'zbekistonning

barcha tarmoqlaridagi hamma kattayu kichik rahbarlar, amaldorlar amalda tadbiq etilayotgan qonunlarga to'la-to'kis amal qilishlari shart, ularni har qanday holat va vaziyatda ham buzmasliklari kerak, degan fikr yotibdi.

Insonparvarlik-bu, o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U o'zbek xalqining ajralmas hislati sifatida ko'zga tashlanadi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-oqibatida, shuningdek, diyonatda, mehr-shafqatida, o'zaro ko'maklashuvda, hamdardlikda, sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko'rinadi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirishga alohida e'tiborni kuchaytirish mustaqil Davlat va xalqning asosiy maqsadidir. Bu xususda prezidentimiz Islom Karimov «xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish - O'zbekistonda Davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat insonga ona suti, ona namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi - deganda, ajdodlar xotirasini pok tutish ularning tarixiy an'alariga, vasiyat va o'gitlariga, milliy qadriyatlariga, ahloqiy-ma'rifiy qarashlariga, avlodlarga, qoldirgan madaniy merosiga sodiqlik va shularga amal qilish demakdir.

Ma'naviyatni qadrlash, uni himoya qilish, avaylab asrash istiqbolli kelajakka umid bag'ishlaydi. Xalqning yuksak ma'naviyatini targ'ib etishda fan va madaniyat, san'at va adabiyot muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda olimlar, badiiy so'z ustalari va san'atkorlarning mehnatini alohida ta'kidlash lozim, ularning ijodiy ravnaqiga yordamlashish va mablag'ni ayamaslik ma'naviyatning buguni va kelajagiga g'amxo'rlikning o'zginasidir.

«Ijodiy xodimlarning ma'naviy kuchiga erkinlik berish, ularga har tomonlama yordam ko'rsatish ham katta ahamiyatga egadir» - deb xuddi shu

narsani, nazarda tutgan yurtboshimiz. Ma'naviy-ahloqiy negizlardan biri vatanparvarlik alohida o'rinni egallaydi. Asl vatanparvar unvonini olish uchun insonga juda katta mas'uliyatli ma'naviy-ahloqiy vazifalar yuklanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov vatanparvarlik va uning tub mohiyati hamda ahamiyati to'g'risida quyidagicha yozadilar: «O'zbekiston fuqarosining-bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir. O'zbekistonga, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'alarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi».

Vatanimiz tarixiga nazar tashlasak, o'zoq o'tmishdan tortib hozirgi kungacha o'tgan haqiqiy o'zbek xalqining mardlik, kaxramonlik namunalarini ko'rsatganlarni ko'rishimiz mumkin. Yuqorida zikr qilingan barcha fikr va mulohazalardan shularni xulosa qilishimiz mumkin-ki, ma'naviy-ahloqiy negizlar mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishda asosiy omillardandir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida xajmli buyumlarga badiiy ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti: Kasb-hunar kollejlarda yog'och o'ymakorligi fani mashg'ulotlarini tashkil etish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Kasb-hunar kollejlarda yog'och o'ymakorligi fani mashg'ulotlari mazmuni, shakli.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarning yog'och o'ymakorligi san'atiga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash;
- o'quvchilarning yog'och o'ymakorligi san'atiga oid bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;
- kasb-hunar kollejlarning yog'och o'ymakorligi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarini ishlab chiqish;

- kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga yog'och o'ymakorlik maktablari va uning namoyondalari haqida ma'lumotlar berish;

-kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga, yog'och o'ymakorlik xom-ashyolari haqida ma'lumotlar berish

-kasb-hunar kollejlari yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida buyumlarga badiiy ishlov berishda ishlatiladigan asbob – uskunalar bilan ishlashga o'rgatish

-kasb-hunar kollejlariida yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida o'quvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish.

-kasb-hunar kollejlariida hajmli buyumlarga badiiy ishlov berish texnologiyasi haqida o'quvchilarga ma'lumotlar berish

Bitiruv malakaviy ish metodlari: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, "Qadrlar tayyorlash milliy dasturi", Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar va xalq ta'limi vazirliklarining qarorlari, ko'rsatmalari, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining o'zbek xalq san'atining rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalari, madaniyat va san'atga oid hukumatning qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar, o'zbek xalq amaliy san'atining milliy an'analari, buyuk olim va pedagoglar, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarni tashkil etadi.

I BOB. YOG'OCH O'YMAKORLIK SAN'ATI

1.1. Yog'och o'ymakorlik san'ati tarixi

Yog'och o'ymakorligi o'zbek xalq amaliy bezak san'tining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog'och buyumlarga chizib, kesib, o'yib, ishlanadi. Badiiy san'atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo'lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari me'morchiligida ham keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog'och o'ymakorligi rivojlanib, uning o'ziga xos badiiy uslublar yuzaga kelgan. Shu singari O'rta Osiyoda ham yog'och o'ymakorligi san'ati qadimdan rivojlanib kishilarning uy-ro'zgor buyumlarida va binokorlik ishlarida juda keng kullanilgan. Bu o'ymakorlik san'ati qadimiy arxitekturaning eshik, deraza ustunlari, (xar xil tusinlarini), hamda stol, xantaxta, kuticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlari bezashda ishlatilib kelingan. Qadimshunos olimlarimizning izlanishlaridan O'rta Osiyoda gorel'efli yani juda burtik (1mm dan 20mm gacha) rel'eflar bilan xar xil narsalarni yog'ochdan o'yib ishlatilganligi maълum bo'ldi. Xalqimiz yaratgan asarlar o'zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aklini lol koldiradi. Afsuski, yog'ochdan ishlangan ajoyib yog'och o'ymakorligiga xar qancha sifatli ishlov berilishiga karamay asrlar utishi bilan ular nanga dosh bera olmay deyarli ko'pchiligi chirib, yo'q bo'lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalari isbotlab bermaqda.

V-VI asrlarda yaratilgan yog'och o'ymakorligi namunalari Surxandaryo voxasidagi Yumaloqtepa tubidan topilgan. Olimlarimizning aniqlashicha, bundan 1-1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda naqsh o'ymakorligi san'ati bo'lib, u juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz va boshqa shaharlardagi arxeologik qazilmalar paytida topilmokda.

VII asrning oxirigacha maxalliy o'zbek xalqi ichida yog'och o'ymakorlik hunari juda tez sur'atlar bilan rivojlangan edi.

«...arablar Markaziy Osiyoni zabt etgunlariga qadar mahalliy xalq ma'budalari topilgan. Har bir xonadonning jamoada tutgan o'rni va boyligiga qarab o'z ma'budasi (xudosi) bo'lgan. Odatda bu ma'buda eshik tepasiga qo'yilgan. Xonadon sohibi mavridi bilan yog'ochdan o'yilgan yangi ma'budani xarid qilib, almashtirib turilgan. Bunday jarayon yog'och o'ymakorligi san'ati qadimiy bo'lganligidan dalolat beradi. Arablar istilosi oqibatida tasviriy san'atning ko'p turlari qatori yog'och xaykallari ishlash ham butkul barham topdi. Biroq islom dini bu san'atning boshqa shaklda rivojlanishiga sabab bo'ldi. Yog'och taroshlovchi usta naqqoshlar o'z san'atini yog'ochda dov-daraxtlarning aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik naqshlar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san'ati otadan – bolaga, avloddan – avlodga meros bo'lib o'taveradi».

IX-X asrda Markaziy Osiyoda, shuningdek respublikamiz xududida madaniyat o'sa boshlaydi. IX asrda Samarqand mustaqil davlat bo'lib koldi. Xalq madaniyatida yangi burilish yuz beradi. Shu asrlarda buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar yetishib chiqadilar. Ular Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Beruniy va boshqalardir. Bu davrda ajoyib me'moriy yodgorliklar ham yaratildi. Masalan jahonga mashxur Ismoil Somoniy maqbarasi shunday inshootlardan biri. Madaniyatning rivojlanishi yog'och o'ymakorligining yanada rivojlanishiga olib keladi. Yog'och o'ymakorligi bilan eshiklar, binolar, ustun, ravoq xar xil xontaxtalar bezatildi. O'ymakor ustalar yaratgan san'at asarlarida timsol va duo-afsunlar, tasbix va tanosiblarning naqadar ko'pligini ko'rish mumkin. Har bir o'yma naqsh zaminida qandaydir ramziy ma'no yashiringan bo'ladi. Ular bu murakkab naqshlar

orqali voqe'likdagi eng go'zal tilaklarni aks ettirib kelganlar. XI-XII asrlarda xalq amaliy san'ati yanada gurkirab rivojlanadi.

Murakkab naqsh turi bo'lgan geometrik naqsh, ya'ni girix naqshi bezakda yetakchi o'rinni egallaydi. Girix naqshi juda rivojlanadi.¹ Masalan, XII asrga oid yog'och o'ymakorligi namunasi Samarqanddagi Shoxi- Zinda devorning orasidan topilgan bo'lib, u o'zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi.

XIII asrda Chingizxon bosqinchiligi tufayli madaniy hayot izdan chiqdi. U 1219- 1221 yillarda mug'ul xukumdorligi ostida Markaziy Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Mavr shaharlari ostun – ustun qilib tashlandi.

XIV asrlarning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo Amir Temur boshchiligida birlashtirildi. Amir Temur va temuriylar davrida san'atning barcha turlari qatori xalq amaliy san'ati juda tez sur'atlari bilan rivojlanadi. Ayniqsa yog'och o'ymakorligi ham yuqori chuqqiga ko'tarildi. Amir Temur O'rta Osiyo madaniyati va san'atini rivojlantirishda katta xissa qo'shdi.

«Amir Temur o'z poytaxti (Samarqandning qurilishi va obodonchiligi uchun xarakat qilish bilan bir qatorda Xuroson (Afg'oniston), Eron, Movarounnahr singari o'lkalardan eng mashhur hunarmandlarni, san'atkorlarni poytaxtga to'pladi, nafis tasviriy san'atning naqqoshlik, me'morchilik, arxitektura, xattotlik kabi san'at turlarini rivojlantirishda ulardan unumli foydalandi.

XIV-XV asrlarda Samarqandda to'plangan mahalliy va xorijiy san'atkorlar, hunarmandlar va muhandislar jome' machitlari, madrasalar xonaqolar, saroylar hamda boshqa ulkan inshootlar qurilishida faol qatnashganlar. Ular hozirgi kunlarda biz ko'rib, ko'zimiz va dilimiz

¹ Karimov X. Usta Qodir. Toshkent., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981 y. 6-bet

quvanayotgan go'zal va nafis tarixiy – madaniy obidalar, asori- atiqalarning bunyod etilishida o'zlarining butun bilim, hunar san'at va mahoratlarini sarf etganlar».

XIV asr o'rtalarida Shayx Sayfuddin Boxarziyning daxmasiga ishlangan yog'och o'ymakorligi naqshi topildi. Sag'ananing ustki qismida o'rnatilgan yog'och taxtasidagi o'ymalar shunday bajarilganki, o'yma naqshning nafisligi, uning murakkabligi, tabiiyligi, dinamikligi, juda sifatli bajarilganligi kishini xayratga soladi. O'ymani bajargan ustaning naqadar nozik didli, kuchli nazariyotchi hamda amaliyotchi, yetuk hunarmand ekanligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Undagi naqshlarning erkin, nozik xarakterli jilvalari inson ruxiga kutarinkilik bag'ishlaydi.

XIV-XV asrlarda yog'och o'ymakorligi tez ko'lamda rivojlanadi. Xattoki ularda tirik mavjudodlar rasmi o'yib tasvirlangan ishlarni ham ko'rish mumkin edi. Samarqanddagi Ruxobod maqbarasining eshigida o'yma naqsh bajarilgan bo'lib, baliqning stillashtirilgan tasvirini ko'rish mumkin. Temuriylar imperiyasining inqirozga uchrashi va XVI-XVIII asrlardagi o'zaro ichki urushlar madaniyatimiz shu qatori xalq amaliy san'atining rivojlanishiga ham salbiy tasir etadi.

XVII-XIX asrlarda tirik jonzodlarning tasviri, ya'ni qush, baliq, ilon va boshqalar yog'och o'ymakorligidagi juda kam tasvirlangan XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida yetuk adabiyot namoyandalari qatori xalq amaliy san'ati ustalari ham yetishib chiqdi. Bu xonadonlarda kulolchilik, misgarlik, ganchkorlik, sirkorlik qatori yog'och o'ymakorligi ham gurkirab rivojlanadi.

XIX va XX asrlarda yog'och o'ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va san'atning boshqa turlari rivojlanib har bir shaharning o'ziga xos yog'och o'ymakorligi uslubi paydo bo'ldi.

Toshketdagi knyaz N.K.Romonovlarning saroyi, Qo'qondagi Xudoyorxon saroyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Marg'ilondagi Saidaxmadxo'ja madrasasi, Buxorodagi Sitorai Mohi-Xosa va boshqalarda ajoyib yog'och o'ymakorligi namunalari yaratildi. Bular o'zbek yog'och o'ymakorligi san'atining bebaxo xazinasidir.

Keyinchalik xam xalq amaliy san'atining boshqa turlari singari yog'och o'ymakorligi tez rivojlana boshladi. Yog'och o'ymakor ustalar xar xil buyumlar, xontaxta, eshik va boshqa narsalarni bezashga jalb qilindi. O'ymakorlik ishlari asta sekin mexanizatsiyalashtirildi. Toshkent va Frunze shaharlarida hunarmandchilik o'quv ishlab chikarish kombinatlari tashkil etildi. O'quv ishlab chiqarish kombinatida juda ko'pchilik talabalarga tahsil olib, usta bo'lib yetishib chiqadilar. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati ustalari qatori yog'och o'ymakor ustalar Toshkentdagi Muqimiy, Navoiy, Xamza teatrlarini, Navoiy muzeylarini, restoran, do'konlar, klub va boshqa joylarni yog'och o'ymakorligining ajoyib namunalari bilan bezadilar. O'zbek xalqining eng ko'zga ko'ringan ustalaridan Olimjon Qosimjonov (1878-1952), Sulaymon Xujaev (1866-1946), Maqsud Qosimov va boshqalar ajoyib san'at namunalarini yaratdilar. Ular o'ziga xos yog'och o'ymakorligi maktablarini vujudga keltirib ajoyib shogirdlar yetishtirdilar.

1.2. Yog'och o'ymakorlik maktablari va ularning namoyondalari

O'zbek yog'och o'ymakorligining o'ziga xos turli uslub va yo'nalishlari mavjud bo'lib, Xiva yog'och o'ymakorligi o'ymasining monumentalligi, yog'och tabiiy rangning saklab kolishi bilan boshqalardan farklanadi. Buxoro yog'och o'ymakorligi esa o'yma naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarni oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Marg'ilon yog'och o'ymakorligida chuqur zaminli yassi o'ymani qo'llab kelganlar.

Qo'qon o'ymakorligida esa kalta burtmali, yassi o'yma uslubini ishlatganlar. Toshkentda esa naqsh bilan qoplagan yassi burtmali, zaminsiz chizma yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan. Yog'och o'ymakorligi maktablari taxminan o'tgan asrning 40-50 yillardan keyin paydo bo'lgan.

Toshkent yog'och o'ymakorlik maktabiga mansub ustalar o'yma naqshlarni 1-2 qavat qilib o'yadilar, keyingi vaqtlarda esa 3 kavatli o'ymalar bajarishga o'tmokdalar. Kompozitsiya jihatidan o'rtacha chuqurlikda o'yib, o'simliksimon, geometrik, gulli girix, xattoki ramziy naqshlar bajaradilar. Pardozning hamma turlarini qo'llaydilar. Ular ko'pincha yong'ok, chinor, buk yog'ochlarini ishlatiladilar. Toshkent ustalari relief yuzasiga ozgina rang berib, reliefni o'zini loklaydilar. Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabi namoyandalaridan biri Sulaymon Xo'jaev bo'lib, u faqat pargori naqshini ishlagan. Uning shogirdi Maqsud Qosimov birinchi bo'lib pargoriy naqshi tekis yuzali islmiy naqsh o'ymaga kiritgan. Maqsud Qosimovning shogirdlaridan biri O'zbekiston Badiiy akademiyasining faxriy a'zosi, O'zbekiston xalq rassomi O.Fayzullaev maktabning rivojiga katta xissa qo'shib juda ko'p shogirdlar yetishtirmoqda.

Sulaymon Xo'jaev Suzuk ota maxallasidagi duradgor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Nasrulloxo'ja panjara va duradgorlikni ota-

bobosidan meros qilib olgan edi. Sulaymon yoshligidanoq yog'och o'ymakorligi qizikar, nozik san'at sirlarini o'rganishga xarakat qilar edi. 17 yoshidan usta Iskandar Mirzayokubov ustaxonasida ishladi. U 1891 yilda, o'sha davrda yog'och o'ymakorligi pargori ustalaridan biri Toshpo'lat Ayubxo'jaevga shogird tushib yog'och o'ymakorligining sir asrorlarini o'rgandi. Pargori bu yog'och o'ymakorligini bir turi bo'lib, o'ymaning chuqurligi 1-1,5 mm dan oshmaydi. Bu naqshlarni «o'ymakor pargori» yoki «o'yma pargori bilan, ya'ni sirkul bilan chizilgan naqshni o'yib ishlash» deyiladi. Sulaymon ustozini xurmat qilar, qiyinchiliklarni sabr-chidam hamda o'ta mehnatsevarligi bilan yengib, hakikiy usta bo'lishga astoydil xarakat qilardi. Keksa ustoz Toshpo'lat Ayubxo'jaev vafot etgach, uning san'atini davom ettirdi. Ustozdan esdalik bo'lib qolgan hamma asboblar yordamida Sulaymon o'zi mustaqil juda ko'p duradgorlik ishlari derazalar, eshiklar, yog'och darpardalar yasadi. Sulaymon Xo'jaev asta-sekin xar bir buyurtmalar olib bajara boshladi. U ko'pincha duradgorlik ishlari bilan shug'ullanar, ya'ni eshik, rom, xontaxta va boshqalar yasardi. Uning ijodiy ishini rivoj topishida rafiqasi SHarofat Otaxo'jaeva yordam berdi. SHarofat Otaxo'jaeva o'zi ham yog'och o'ymakorligiga qizikar edi, chunki uning otasi ham yog'och o'ymakor usta bo'lgan edi. O'sha vaqtlarda, ya'ni XX asrning boshlarida olti, sakkiz qirrali xontaxtalar shuningdek mayda buyumlar ishlab chiqarishga ham extiyoj juda katta edi. Usta yasagan ishlarning mohirlik bilan bejirim qilib bezar edi. S.Xo'jaev tojik, fors turk va arab tillarini yaxshi bilib juda ko'p kitoblar mutolaa qilar edi. U sayoxat qilishni yoqtirar edi. Usta 1909 yil Turkiyaga va Arabistonga bordi. Makkani ziyorat qilish bilan birga chet ellardagi xalqlarning hayoti va amaliy san'ati bilan tanishishga xarakat qildi.

1913 yili Toshkentdagi rus duradgorlari bilan tanishdi va ular maslaxati bilan o'zining naqshlangan kursichasi va qush qafasi bilan Sank-

Petrburgdagi ko'rgazmasida qatnashdi. Ana shu qilgan ajoyib ishlari uchun «Za poleznie trudi» bronza medali va diplom bilan taqdirlandi. Keyinchalik mohir usta aloxida ustaxonali bo'ldi. U o'z shogirdlari bilan ko'plab ajoyib o'ymakorlik ishlarini bajardi. Usta Sulaymon Xo'jaev o'z xunari sir-asrorlarini kelajak avlodga o'rgatishda mehnatini ayamadi. U Toshkentning o'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida o'ymakorlik san'ati bo'yicha o'qituvchi bo'lib ishladi. 1935 yili Toshkent shahar xalq maorifi bo'limi xuzuridagi tugaraklarga rahbarlik qildi. Shu bilan bir vaqtda usta Toshkentdagi to'qimachilik kombinatining o'zbek xalq naqshlari asosida gul solinadigan fabrikasida maslahatchi-rassom bo'lib ishladi. Sulaymon Xo'jaev romka, qutichalar, stollar, jovonlar, shkaflar va boshqa narsalarni o'zi yasardi. Ko'pincha yong'ok va chinor yog'ochlaridan foydalanardi, chunki bu yog'ochlar qattik va pardoz berganda ajoyib ko'rinishga ega bo'ladi. Yuza o'ymada yorug'lik kontrasti katta rol o'ynaydi. Pargori naqsh kompozitsiya ancha murakkab bo'lib, ustadan ko'p mehnat hamda sabr-toqatni talab etadi. Usta kerakli yuzaga qog'oz qo'yib ustidan qalam, tsirkul', chizg'ich yordamida naqsh kompozitsiyani chizar va shu tarx bo'yicha o'yar edi. U naqshni o'yishda o'yma qalamdan foydalanar edi. Ustada 30-35 ta yog'och o'ymakorligining asosiy asboblari bo'lib, ular kichik yoki yirik naqshlarga mo'ljallanganishiga qarab xar xil o'lchamda bo'lgan. Pargorida asosan 5 xil asbob ishlatiladi, ular naqsh kompozitsiyasini o'yib chikish uchun «nova iskana» (yarim aylana shakldagi tig'li asbob) «baliq sirt», (tigi yoy shakldagi asbob) va «to'g'ri iskana» (keskichi to'g'ri tig'li asbob) asboblarda urib chiqiladi. Yog'och yuzidagi qog'ozni ko'chirib tashlanadi. Keyin esa «zamin qalam» asbobida zamin o'yib chiqiladi va tekislanadi. Naqsh zimini «gurzi» (tigi mayda tishli bo'lgan asbob bilan urib chiqiladi. Ya'ni uni «chakichlash» deyiladi. Chakichlangan naqsh o'ziga xos tekis ko'rinishga ega buladi. Chakichlashda gurzining tig'ini o'yma tik ushlab urib chiqiladi.

Usta naqsh kompozitsiyani bir kunda chizib tashlar edi. Katta bo'lmagan o'yma buyum fonini olishga 2-3 kun sarflar edi. O'yma uncha chuqur bo'lmasada u yorish soyada yaxshi aniq ko'rinar edi. Ayniqsa gurzi bilan naqsh zaminini chakichlab lok berilganda o'ziga xos ko'rinish beradi. Usta naqsh andazalarini buyurtmachilarga yoki shogirdlariga esdalik uchun berib yuborar edi. Ana shunday ajoyib va juda ko'p naqsh andazalari san'at muzeyida saqlanmokda. Bu andazalarni 1947 yili usta muzeyga takdim etgan edi. Usta Sulaymon Xo'jaev «lavx (kitob qo'yib o'qiydigan taglik) ishlashning mohir ustasi edi. U lavxni juda ko'p turlarini yasadi. Lavxni yasash san'ati sirlarini o'sha paytda ustaning o'zi yaxshi bilar edi. Ustaning yog'och o'ymakorlik turi «pargori» uslubida ishlash yulini uning shogirdi Maqsud Qosimov ijodiy ishlab yanada rivojlantirdi.

Usta Sulaymon Xo'jaev o'zbek xalq bezak san'atining juda ko'p ko'rgazmalarida qatnashdi. 1923 va 1927 yillarda Rossiyada o'tkazilgan xalqaro san'at ko'rgazmalarida 1 darajali diplom bilan takdirlandi. 1930 yilda O'zbekistonning 5 yilligiga bagishlangan ko'rgazmada qatnashdi, 1937 yilda Parijda bo'lib o'tgan san'at ko'rgazmasida qatnashib yuksak baho oldi. Xo'jaev shogirdlaridan Muhammadvali Asqarov (1909-49), Maqsud Qosimov pargori naqshini ijodiy rivojlantirdilar hamda o'ziga xos yog'och o'ymakorligi maktablarini yaratdilar.

O'zbekiston xalq ustalari ichida birinchi bo'lib Usta Sulaymon Xo'jaevga (1932 yili) Mehnat qahramoni unvoni berilgan edi. 1947 yili 81 yoshida pargor ustasi vafot etdi. Yaxshi san'atkorning ikkinchi umri boshlandi. Uning yuzlab yaratgan asarlari Moskvadagi Sharq xalqlari muzeyida, O'zbekiston Respublikasi tasviriy san'at muzeyida va O'zbekiston xalq amaliy san'ati muzeyida namoyish etilib xalqqa xizmat qilmokda. Ustaning yaratgan asarlari madaniyatimiz tarixiga juda katta bebaxo xazina bo'lib qo'shildi.

Maqsud Qosimov 1905 yilda Toshkent shahrida hunarmard-usta oilasida dunyoga keldi. U o'n yoshida maktabga borib besh yil ta'lim oldi. Maqsudning tog'asi Mirsoat Isamuhammedov duradgor edi. U o'sha kezlarda tog'asiga yordam berib yurib duradgorlik kasbini o'rganib oladi. 16 yoshida Maqsud duradgor bo'lib ishlay boshladi. 1933-1934 yillarda M.Qosimov hozirgi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tarix muzeyida duradgor bo'lib ishlab yurganda o'ymakorlar, naqqoshlar, me'morlar bilan tanishdi. Bu tanishuv uning hayotidagi ijodiy yo'lini aniqlab beruvchi omil bo'ldi. Tarix muzeyi milliy me'morlik an'alariga yuzaki yondoshdi. Chunki o'sha vaqtda o'tmish merosidan tanqidiy foydalanish kerak degan noto'g'ri tushunchaga amal qilinar edi. Shunga qaramay bu binoga xar yerdan xalq amaliy san'ati ustalari taklif etildi. Ular toshkentlik kulol usta M.Raximov, T.Miralievlar, o'ratepalik o'ymakor naqqosh usta Ashirov, A.G'ofurxujayev, toshkentlik naqqosh Yoqubjon Raufov, Qo'qonlik usta Abdurazzoq Abduraxmonov, toshkentlik naqqosh Abduvakil Isaev va boshqalar edi.

Muzeyning darvozasi yog'och o'ymakor naqqoshlar bilan ijodiy hamkorlikda bajarildi. Chap tabaqasining naqsh kompozitsiyasini Yoqubjon Raufov chizmalari asosida o'ratepalik yog'och o'ymakor Amir G'ofurxujayev bajardi. O'ng tabaqasini esa toshkentlik naqqosh Abduvakil Isaev naqsh chizmalari asosida Qo'qonlik yog'och o'ymakor usta Abdurazzoq Abduraxmonov bajardi. Maqsud aka shu yog'och o'ymakor usta Abdurazzoq Abduraxmonovga yordamlashdi. Mehribon usta Maqsudga dastlabki yog'och o'ymakorligi hunarini o'rgatdi. Maqsud yog'och o'ymakorligi bilan birga panjara san'atini ham chuqur o'rganib bordi. XIX asrda arxitektura binolarida panjara juda ko'p qo'llanilar edi. Maqsud qadimiy panjaralar bilan tanishdi va ularni yasash sir-asrorlarini o'rgandi. O'ymakor tarixiy panjaralarni o'rganar ekan, o'zi ham ajoyib panjaralar

yaratdi. Uning ajoyib ishlaridan namunalar hozirda O'zbekiston tasviriy san'at muzeyida saqlanmoqda.

1935 yilda Toshkentda hunarmandchilik o'quv ishlab chiqarish kombinati ochildi. Shu vaqtda yosh ustaning qobiliyati hamda uning shu hunarga bo'lgan qizikishini sezgan muzey xodimlari Maqsud Qosimovni hunarmandchilik o'quv-ishlab chiqarish kombinatiga o'zbek xalq amaliy-badiiy san'tini o'rganishga yubordilar. Tirishqoq, xarakatchan va hunarga tashna Maqsud yog'ochga, tosh, metall va ganchga gul o'yishni ikki yil mobaynida o'rgandi. 1902 yilda Turkiston general gubernatorligining diplomatik chinovniklaridan biri N.A.Polovtsevning buyutmasi bilan qurilgan binoda o'quv kombinati joylashgan edi. Bu binoga hozirgi o'zbek xalq amaliy san'ati muzeyi joylashgan. Bu binoda juda baland ajoyib ustunlarning naqsh, ganch va yog'och o'ymakorligi hamda koshinkorlik namunalarini ko'rish mumkin. Undagi naqshlarning uzviyligi, rang-barangligi, kompozitsiya jihatidan mukammalligi binoga ajoyib bir qaytarilmas xusn bag'ishlaydi. Har bir naqshning unsurlarida tugal go'zallik, yuksak bir san'at mujassamdir. Kishilar bu naqshlarni har qancha ko'rsalar ham xech zerikmaydilar. Aksincha, ular tomoshabinni yana o'ziga jalb etadi. Qosimov naqsh nigoralarini ko'rib yanada zavqlanib ulardan naqsh nusxalar olar, ularni taxrir qilar edi. Har bir nusxa olgan naqshlardan ijodiy foydalanib o'nlab naqsh kompozitsiyalar tuzar, undagi sir-asrorlarni urganar edi. Xa, bino zallaridagi bezaklar xuddi yosh usta bilan tarix va san'at haqida gaplashayotganday tuyular, Qosimovning ruhini ko'tarib yanada yangi-yangi ajoyib kompozitsiya ijod qilishga ilxomlantirar edi. Bu o'quv kombinatiga O'zbekistondagi xalq amaliy san'ati ustalari-ganchkorlar, yog'och o'ymakor ustalar, misgarlar, chitgarlar, kulollar va boshqa ko'plab ustalar taklif qilingan edi. Shular ichida naqqosh Olimjon Qosimjonov ham bor edi. Qosimov o'quvchilarga naqsh kompozitsiyasini ishlashni, bo'yoq

bilan ishlashni, yog'ochga gul solish va boshqa sir-asrorlarni o'rgatdi. Qosimovning bu ishida naqqosh Yoqubjon Raufov katta rol o'ynaydi. Toshkentlik Sulaymon Xo'jaev yog'och o'ymakorlik san'ati sirlarini o'rgatdi. Usta unga yog'och o'ymakorligining «pargori» usulini, stolcha, quticha, lavx, kursi va boshqa narsalar yasashni hamda o'yib pardo berishni o'rgatdi. Yana ulardan qanday foydalanish kerakligini, daraxtlarni oftob tushgan tomonini olishni, tiniq, zich va chiroyli bo'lishini o'rgatdi. Asboblarni qanday tayyorlash, ulardan foydalanish hamda saqlash qoidalarni o'rgatdi. Qosimovga ustoz pargori uslubda naqsh o'yishni mukammal o'rgatgan bo'lsa-da, uni ijodiy o'zlashtirib «islmiy» uslubda naqsh o'yishini rivojlantirdi. Islmiy naqsh bu o'simliksimon naqsh elementlaridan tuzilgan bo'lib o'ziga xos o'suvchanlik xususiyatiga ega. Maqsud Qosimovning «islmiy» naqsh usulini tanlashining sababi uni Qo'qonlik yog'och o'ymakor usta Abdurazzoq ijodidagi bir-biri bilan silliq chirmashuvchi bandlardan iborat o'yma gullarning juda qiziqtirganligidir. M. Qosimov o'ymakorligi yog'och yuzasining silliq o'yilishi, qirralarining o'tkir burchakliligi, o'ymaning chuqurligi 1,5-2 mm o'yilishi bilan xususiyatlidir, usta tayyorlangan yog'och buyumga naqsh o'ymoqchi bo'lsa avvalo yog'och yuzasini tekislab oladi. Yuzaga moslab naqsh kompozitsiyasini chizib uning axtasi tayyorlanadi. Axta orqali yog'och yuzasiga tushiriladi va ishlatilgan axtani ustalar doim saqlab keyingi ishlarida ijodiy foydalanganlar. Naqshning tarxi maxsus iskana bilan kesiladi. O'yilgan satx gurzi (chakich) bilan chakichlanadi.

M. Qosimov yog'och o'ymakorligi san'ati sirlarini o'rganish bilan birga o'zi ham ijodiy stolchalar, panjalar va boshqa narsalar ishladi.

M. Qosimov o'quv kombinatida toshkentlik mohir panjarasoz usta Nasriddin Ziyakorievdan yog'och panjarani yasashni o'rgandi. Yog'och panjarani yasash uchun avval randalangan mayda taxtachalar (terak yoki

arg'uvon daraxtlar, yog'ochlar) shu rom ichiga qalab yoki yig'ib chiqiladi. Albatta bunday panjaralar yasash ustadan ko'p mehnat, mahorat va aniqlik talab qiladi. Panjara yasashda hech qanday shirach, mix ishlatilmaydi. Tayyoqchalar yig'ib chiqilgandan so'ng to'rt tomonidan yog'och rom bilan mustahkamlanadi.

M.Qosimovni shu texnika asosida tayyorlangan panjaralari «egri vos-vos», «suvor» va boshqalar O'zbekiston san'at muzeyida saklanmoqda. O'zbek xalq ustalarining ko'p asarlar davomida yaratgan an'anaviy panjaralari mazmuni va shakliga qarab o'ziga xos nomlar bilan atalgan. Chunonchi «chor chashma», «suvora», «toki», «o'zma», «egri vos-vos» va boshqalar shular sirasiga kiradi.

M.Qosimov duradgorlik kasbini tog'asi Mirsoat Isamuhammedovdan, yog'och o'ymakorligini esa Qo'qonlik yog'och o'ymakor usta Abduraxmonov va Toshkentlik yog'och o'ymakor usta Sulaymon Xo'jaevdan o'rgandi. Naqsh chizishni toshkentlik naqqosh Olimjon Qosimjonovdan va o'ratepalik naqqosh Yoqubjon Raufovdan, panjara yasashni Nasriddin Ziyakorievdan, boshqa ustalardan esa ganch, metall, toshga naqsh o'yib ishlashni o'rgandi, 1937 yili o'qishni tugatgandan so'ng oilasi bilan Moskvada uch yil yashab, Moskvada tashkil etilgan ko'rgazmada Qirgiziston «pavilon» ini bezashda yog'och o'ymakorligi guruhiga rahbarlik qildi. Ular ustun, eshik, gerb va boshqa narsalarni o'yib ishladilar, shiftlarni naqsh nigoralari bilan bezadilar. U qirgiz san'ati bilan yaqindan tanishganligi sababi bu san'at uning ijodiga ijobiy ta'sir etdi. Usta naqsh o'yish va chizishda qirgiz bezak unsurlarini qo'llab o'zbek o'ymakorligiga tadbiq etdi. Bu esa o'ziga xos noyoblikni ta'minlovchi omil bo'ldi.

U 1940 yili Frunze (hozirgi Bishkek) shahridagi hunarmandchilik o'quv ishlab chiqarish kombinatiga ishga taklif qilinib nafis o'ymakorlik san'atidan yoshlarga dars berdi. Ikki yil davomida o'n beshta yog'och

o'ymakor usta tayyorlab berdi. U qirgiz milliy naqshlarini yaxshi bilganligi uchun o'zining naqsh kompozitsiyalarini chizishda qirgiz naqsh elementlaridan yaxshi foydalandi. Qirgiz milliy naqsh motivlari asosida ajoyib sandiqchalar, qutichalar, romka va boshqa narsalar ishlandi. Usta me'morchilik yodgorliklarini qayta tiklashda ham o'z xizmatini ayamadi. Chunonchi, sobiq Polovtsev uyi, ya'ni hozirgi «Xalq amaliy san'at muzeyi»ning asosiy binosini o'yma gulli eshik va ustunlarini qayta tikladi.

II Jahon urushi yillari Muqimiy nomli teatr binosini bezash ishlari ketayotgan edi. Bunga O'zbekistonning turli viloyatlaridan ustalar taklif kilindi. Chunonchi Usta Shirin Murodov, Yusufali Musaev, Abdulla Boltaev, Shamsiddin Gofurov, Usmon Ikromov, Maqsud Qosimov va boshqalar taklif etilgan edi. Arxitektorlar D.Xazinov va S.Tixonov shu teatr loyixasi mualliflari edilar. Maqsud Qosimov toshkentlik ganch o'ymakor va naqqoshlar brigadasiga boshchilik qildi. Rassomlar A. Nikolaev (usta Mo'min) va R. Akbalyan rasmlar eskizini tuzdilar. M. Qosimov va uning ukasi ganchkor Xoji Qosimov hamda shogirdi Shonazar G'ulomov bilan birga uch ravoqli peshtoqning ichkarisida uchta eshik va uning tepasidagi panjaralarini yasashda. M.Qosimov eshiklarga an'anaviy xolda o'sha davrga mos naqshlar ishladi. Uchta eshik ham bir-biri bilan bog'langan bo'lib, bir butun ko'rinishga ega bo'ldi.

«...ishlangan eshiklarninig ikki tabaqali konstruksiyasi bir xil, har bir tabaqa uchta yirik diladan iborat. Dila keng yog'och xoshiyali. Har bir dila yuzasi ornamentli chorsi panno bilan qoplangan. Panno o'rtasida davra turunj bo'lib, atrofini band, barg va gullar to'qimasidan iborat simmetrik ornament o'rab turadi, taqabalar o'rtasida dila ornamentida o'simliksimon va geometrik motivlar mohirlik bilan birlashtirilgan. Dilada ornamentning to'rt xil variantini uchratsak-da, ular bir printsiptan asosida tuzilgan: markaziy gulgin, davra turunj va uning atrofida tor xoshiya-zanjira, xolos. Ikkala

eshikdagi un ikkita dilada turlicha zanjira ishlatilgan. Dila va xoshiyalar turlicha bulishiga qaramay, har biri butun kompozitsiyaga aylangan. Eshiklar bir-biridan asosan xoshiya ornamentlari bilan farq qiladi. Bir xoshiya barg va bandi pechaksimon «islmiy yak raftor» dan iborat bo'lsa, ikkinchisi band va barglar to'qimasidan tashkil topgan, cho'ziqroq turunjlardan iborat murakkab «chop islmiy» ornamentdir. Qosimov eshiklarni yasashda o'zbek xalq o'ymakorligi ornamentlarining turli ko'rinishlarini birlashtirib ishlagan. Usta asosan sayozkor (3-4 mm), mayda burtmali, tik kesilgan va zamini chakichlagan o'yma usuldan foydalandi. Eshiklarning pastki dilasiga yirikroq ornament va xoshiyalarga «islmiy yak raftor» ishlatilgan bo'lib, burtma yuzasi esa qo'shimcha pardoziqlangan. Ingichka, nozik chorlar tekis yuzali o'ymani yana ham ko'rkamlashtirgan. Muqimiy nomli teatr eshiklari O'zbekistonning hozirgi monumental dekorativ san'atning ajoyib asarlaridan biridir».

1943-46 yillarda M. Qosimov Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri qurilishida ham qatnashib, u asosan ganchkorlik ishlariga rahbarlik qildi.

1946 yili u o'g'li Ahmad bilan teatr tomosha zali uchun tayyorlangan kreslolarga oddiy o'yma gul ishladi. Unda «sebarg», ya'ni uch bargdan iborat o'simliksimon naqsh ishladi. M. Qosimov 1944 yilda O'zbekiston Rassomlar uyushmasining a'zosi bo'ladi.

1953 yilda ishlangan ustaning sakkiz va olti qirrali stollar juda chiroyli chiqqan. Ularni umumiy shakli Qo'qon va Toshkent ustalarining ishlaridan farq kiladi. Ayniqsa bu stollarga qo'llangan «ko'zacha islmiy» juda jozibador, ta'sirchan chiqqan. Umuman naqsh kompozitsiyadagi simmetriya, aniqlik, muvozanatlik xususiyatlarini o'zbek milliy naqshlarida ko'rsata olgan. M. Qosimov 1953 yilda Moskvada o'tkazilgan ko'rgazmada O'zbekiston «pavilon»i uchun badiiy mebellarni bezashda qatnashadi. 1959

yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasiga usta sakkiz kiralik kursisi bilan qatnashib medal bilan mukofotlandi. M.Qosimov umrining oxirigacha P.P.Benkov nomidagi Respublika badiiy san'at bilim yurtida o'qituvchi bo'lib ishlaydi.¹ U ko'pgina yog'och o'ymakor ustalar (O.Fayzullaev, X. Qosimov, X. Rixsiev, A. Shokirov va boshqalar) tayyorladi. Maqsud Qosimov o'zbek xalq amaliy bezak san'atining rivojlantirishdagi xizmatlari uchun bir necha marta O'zbekiston Respublikasining faxriy yorliklari bilan mukofotlangan. Ustaning asrlari Samarqand, Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburg muzeylarida doimiy eksponatga aylanib qolgan.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atini rivojlantirib kelayotgan toshkent maktabining yorqin namoyondalaridan biri, Rassomlar uyushmasining a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zBA faxriy a'zosi **Ortiq Fayzullaev** 1933 yil 1 mayda Toshkentda tug'ilgan. U yoshligidan she'rga, musiqaga va xalq amaliy san'atiga qiziqar edi.

1952 yili Toshkentdagi P.P.Benkov nomidagi Respublika badiiy bilim yurtining xalq amaliy san'ati bo'limiga kirib o'qib a'lo baholar bilan tugatdi. 1963 yili ijodiy ish bilan boshladi. 1969 yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining rasm-chizmachilik bo'limini bitirdi. U bilim olish bilan bir qatorda o'z ijodiy ishi bilan xalqqa tanila boshladi.

O'ymakor-rassom Toshkentda qurilayotgan eng yirik ma'muriy binolarning deyarli barchasida o'z ijodi bilan qatnashgan desak xato qilmaymiz. U Respublikamizning adabiyot va san'at, shuningdek boshqa bir kancha muzeylarini, Toshkentdagi «Moviy gumbazlar» choyxonasini, Poytaxtamizdagi san'at saroyini, «O'zbekiston» teploxodining kafesini, Kislovodskiydagi «O'zbekiston» sanatoriyasini, Parkent shahridagi Chotqol

¹Avedova N. A. Toshkent o'ymakorligi. O'z. Davlat Badiiy adabiyot nashriyoti. 1961.17-18-betlar

qo'riqxonasining tabiat muzeyini, Qarshi shahridagi muzeyni, Toshkent mehmonxonasini, O'zbekiston mehmonxonasini va boshqa joylarni bezashda faol qatnashdi. El taxsiniga sazovor asarlar yaratgan, mahoratli usta Ortiq Fayzullaev P.Benkov nomli Respublika badiiy bilim yurtida o'qituvchilik qilib yurgan vaqtida o'z san'atining sirlarini yoshlarga sidqidildan o'rgatdi. Ustaning ta'limini olgan Ergash Aliev, Abduvosiq Saydullaev, Raxim Malikov, Botir Ganiev, Mirza Nasmiddinov kabi ko'plab ustalar hozirning o'zidayoq ko'xna san'atning go'zal namunalarini yaratmokdalar. 1957 yili u O'zbekiston yoshlari festivali munosabati bilan ochilgan ko'rgazmada kursi, quticha va boshqa asarlar bilan qatnashib, ko'pchilik diqqatini o'ziga tortdi. Ana shu anjumanga taqdim etilgan «Jahonga tinchlik» pannosi uchun «Festval laureati» unvoni oldi. Bu asar VI Jahon yoshlari festivali ko'rgazmasida ham katta muvaffakiyat qozondi.

Usta 1959 yilda tengdoshlari A'zam Shokirov, Hamidulla Rixsiev bilan ijodiy hamkorlikda ustoz M. Qosimov rahbarligida g'oyat murakkab besh pardali panjara yaratib, Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston san'ati va adabiyoti dekadasida muvaffaqiyatli qatnashdi.

Parda devor (shirma) ko'chma parda, xonani bo'lish, ayirish uchun ishlatiladigan maxsus yig'ma to'siq. Parda devorini yog'ochdan (panjarali yoki bo'yoq naqshli) suyakdan va boshqa materiallardan yasaldi. Rossiyaning Yoqutiston muhtoriyatida, Sharq davlatlaridan Hindiston va boshqa mamlakatlarda suyakdan ishlangan ajoyib na'munalar bor. O'zbekistonda yog'ochdan panjara usulida va yog'ochga naqshni bo'yab ishlash usulida bajarilgan parda devorlar yaxshi rivojlangan. U qadimdan ishlatilib kelinayotgan xona jihozi bo'lib, kishilarning kiyinishi uchun to'siq vazifasini o'tagan. Parda devorning ikkinchi turi esa deraza shirmasidir. U ko'pincha yog'och panjarali bo'ladi. U bir va undan ortiq, ko'pincha 3 va 5 tabakali bo'ladi. O'zbekistonda parda ustalari Nasriddin Ziyakoriev, Ortiq

Fayzullaev, Abduvosiq Saydaliev, Botir G'aniev va boshqalardir. Shirmaning ajoyib namunalari o'zbek xalq amaliy badiiy san'ati, tasviriy san'at kabi muzeylarda saqlanmoqda. Ortiq Fayzullaev panjara san'atining eng yetuk ustalaridan biri. Uning ko'pgina panjaralari respublikamiz va chet ellardan turli nufuzli muzeylarning doimiy eksponatiga aylangan. San'atkor yaratgan asarlar badiiy yetukligi, mazmunan teranligi, ishlash texnikasining yuksakligi bilan ajralib turadi.

Ortiq Fayzullaev o'ymakorlik san'atining xilma-xil janrlarini mukammal egallagan. Yog'och gul solish va naqsh ishlash ustaning sevimli mashg'ulotidir. Uning bu sohada yaratgan ko'pgina ishlari hozirgi kunda ko'pgina yangi binolarni bezab turibdi. Bu jihatdan, «O'zbekiston» mexmonxonasi, «Moviy gumbaz» dagi ishlari diqqatiga sazovar. O.Fayzullaev o'z ijodida yog'och o'ymakorligining o'zoq asirlik boy an'alaridan keng foydalanadi. Lekin ularni aynan qaytarmay, zamonamiz ruhiga monand yangi jilo va bezaklar bilan boyitdi. O'zbekiston Vazirlar Maxkamasi bog'idagi yog'och o'ymakorligi ishlari, bir qarashida an'anaviy islimiy ishlarni eslatadi. Shu bilan birga undagi detallarning nisbatlari, chiziqlar o'ynoqiligi, ularning xarakati oraligiga naqsh uchun tanlangan chuqurlik, yirik detallar joylashuv uyg'unligining mutanosibligi asarga aloxida joziba baxsh etgan. Ijodkorning an'anaviy naqsh o'ymakorligiga yangicha realistik unsurlarni kiritishga intilishi uning «xalq ustalari» va ayniqsa, «anor» naqsh kompozitsiyasida yaqqol ko'zga tashlandi. «Anor» kompozitsiyasida tasvirlangan anor shoxi va undagi meva, qushlar tasviri bir tomondan real voqealik ko'rinishini ifodalasa, ikkinchi tomondan, tasvirdagi shartlilik, afsonaviylikka intilish butun kompozitsiyaga alohida xusn va joziba bag'ishlaydi.

Ortiq Fayzullaevning nozik didi, qalb ko'ri, chidam va matonati tufayli maydonga kelgan san'at durdonalari madaniyat koshonolari,

istiroxat maskanlarining xusniga xusn qo'shmoqda, qadimiy xalq san'ati bizning davrimizda obro' va e'tibor qozonishi mumkinligini isbotlamoqda. San'atkor yaratgan nafis va takrorlanmas asarlar faqatgina mamlakatimiz muzeylaridagina emas, balki Yaponiya, Germaniya, Polsha, Turkiya, Finlyandiya kabi chet ellardagi xalqaro ko'rgazmalarda ham nomoyish qilingan. O.Fayzullaev xozirgacha 80 dan ortiq nufizli ko'rgazmalarda ishtirok etganligi uning tinmay izlanayotganligidan dalolat berib turibdi.

Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda o'yma naqshlarning maydaligi, yuzaligi, zaminining kamligi naqshlarning zichligi hamda badiiy tuzilishi jihatidan o'ynaqligi (xarakatchanligi, dinamikaviyligi), ya'ni novdalarni spiralsimon ishlanib ajoyib shakllar xosil qilishi bilan farq kiladi. Xiva o'ymakorligi ustalari ko'pincha qayrog'och, terak va chinor yog'ochlarini ko'proq ishlatiladilar. Ular yog'och rangining tabiiyligini saqlagan xolda uning yuzasiga va zaminiga paxta, zig'ir (xorazmcha – oq yog') yog'i beriladi. Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi o'zining mahobatligi bilan mashhurdir. Xiva naqshning go'zalligi, naqshlarni turli chuqurlikda o'yilishi orqali katta aniqlikka va uyg'unlikka erishishdadir. Ustalar yog'ochning tabiiy ko'rinishini saqlashga xarakat qilib yangi o'yma yuzasini silliqlash, bo'yoq surtish ishlarini qo'llamaganlar. Ota Polvonov, Sapo Bokbekovlar Xiva maktabi ustalaridandir.

Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda ancha farqli bo'lib, u o'ymalarning juda mayda o'yilishi, kompozitsiyasining murakkabligi, ya'ni geometrik, o'simliksimon va gulli girix kompozitsiyalar hamma zamin va releflarni loklashdan boshlanishi bilan ajralib turadi. Asosan chinor, dub, buk va terak yog'ochlari ishlatiladi. Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi hunarmand namoyandalaridan usta Asatilla, M.Jumaboev, Abduxofiz Jalilov, Usta Nasrulla, Nurali Nazrullaev va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabi ustalari quticha, kursi, rom va boshqalarida kalta burtmali yassi o'ymani, ya'ni pargori uslubda ishlatilib kelib, me'morchilikda eshik, ustunlarga yirik chuqur naqshlar o'yib, o'zgacha maktab yaratdilar. Bu maktablar o'ymalarining mahobatligi, yirikligi, ko'pqavatligi bilan farq qiladi. Qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabni rivojlantirishda Qodirjon Haydarov va uning shogirdlari katta xissa qo'shdilar. Ular ko'pincha terak, yong'oq kabi yog'och materiallaridan foydalandilar. Ustalar o'yilgan relefning faqat yuziga to'qroq rang berib keyin loklaydilar.

Marg'ilon yog'och o'ymakorlik maktabi o'ziga xos milliy ko'rinishga ega bo'lib, o'ymani chuqur zaminli yassi qo'llaydilar. Keyingi vaqtda Marg'ilonlik ustalar binolarni yog'och o'ymakorligi bilan bezashda katta ishlarni amalga oshirmoqdalar.

II BOB. YOG'OGH O'YMAKORLIGIDA FOYDALANILADIGAN XOM-ASHYOLAR VA ASBOB-USKUNALAR

2.1. Yog'och o'ymakorligida foydalaniladigan xom-ashyolar

Qadimdan har xil yog'och materiallardan turli maqsadda foydalanib kelingan. Duradgorlik, yog'ochsozlik, mebelsozlik, qurilish, kemasozlik va boshqa qator kasb-sohalarda yog'ochlardan keng ko'lamda shu sohaga mos keladigan yog'ochlar saralanib, undan ajoyib san'at asarlari, inshootlar, me'moriy obidalar bunyod etilgan. Yog'och o'ymakorligida ham o'ymakor ustalar yog'ochni o'yishdan oldin uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganib chiqqanlaridan so'nggina yog'ochni o'yib naqsh ishlaganlar.

Yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida o'ymakorlikda foydalaniladigan yog'och materiallari, ularning turlari, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari, zahiralari va boshqalarni bilish o'quvchilar uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Yog'och materiallari turli jinsdagi daraxtlardan olinadigan xom-ashyo hisoblanadi. Chunki, binokorlikda, qurilishda, mebelsozlikda va yog'och o'ymakorligida asosiy xom-ashyo sifatida ishlatiladigan yog'ochlar turli daraxtlar tanasidan olinadi. Daraxt tanasi o'zak, yog'ochlik, shoxlar, tolalar va po'stloqlardan to'zilgan. Yog'och xom-ashyosi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) tabiiy yog'och xom-ashyosi;
- b) turli bo'zilishlarga, chirishlarga qarshi antiseptik moddalar shimdirilgan yog'och xom-ashyosi;
- v) presslangan yog'och xom-ashyosi;
- g) yelimlangan yog'och xom-ashyosi;
- d) qatlam-qatlam yog'och xom-ashyosi;
- e) qatlamli presslangan yog'och xom-ashyosi;
- j) plastik yog'och xom-ashyosi (maydalangan qipiq, payraxa va qirindilarni organik va mineral bog'lovchilar bilan yelimlib, qayta ishlab tayyorlanadi).

Yog'och o'ymakorligida asosan 1-guruhga mansub, ya'ni, tabiiy yog'och xodalaridan, g'o'lalaridan olinadigan taxtalar xom-ashyo sifatida ishlatiladi.

Yog'och materiallari tabiiy guliga, rangiga, tovlanishiga va hidiga qarab aniqlanadi.

Daraxtlar bo'yicha qarab 3 guruhga bo'linadi:

35 metrdan baland - chinor, terak, qora qayin, qarag'ay;

25 metrdan 35 metrgacha - qayrag'och, yong'oq, oq qayin, tol, qatrang'i;

25 metrgacha - zarang, chetan, shumurt kabi mevali daraxtlarga hamda butalarga bo'linadi.

O'zbekistonda yog'ochlarning yumshoq, qattiq va juda qattiq xodalari olinadigan nina bargli va yaproq bargli turlari mavjud.

Nina bargli daraxtlardan olinadigan yog'ochlar qurilishda, duradgorlikda, jumladan, yog'och o'ymakorligida ham asosiy material sifatida ko'proq ishlatiladi. Chunki, nina bargli daraxtlar tarkibida smolali moddalari ko'proq bo'lganligi uchun u tez chirib ketmasligi, namga chidamliligi, bargli daraxtlarga qaraganda ko'pligi va yengilligi, unga ishlov berish osonligi, tanasining to'g'riligi, silliqligi, ulardan olinadigan xodalarning kam butoqligi bilan o'ymakor ustalariga ko'proq qo'l keladi. Yog'och o'ymakor ustalar o'z asarlarini har tomonlama go'zal va jozibador chiqishi uchun eng yaxshi yong'oq, qayrag'och, chinor, tut, archa, terak, o'rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a'lo navlarini ishlatadilar. Hozirgi kunda mahalliy daraxtlardan olingan materiallar bilan bir qatorda boshqa joylardan keltirilgan shamshod, eman, qarag'ay, arg'uvon, shumtol, zirk kabi boshqa daraxt yog'ochlari ham ishlatilmoqda.

Yog'och o'ymakor ustalar o'zlari yaratayotgan buyumlariga qarab yog'och materiallarining xususiyatlari, daraxtlarning turlari, rangi, ishlov berilishining oson-qiyinligi va ishlov berilgandan keyin buyumlarning sifatli chiqishi va saqlanishini bilishlari uchun yog'och xom-ashyolari olinadigan daraxtlarni o'rganishlariga to'g'ri keladi.

ARCHA (ruscha - mojjevelnik) – o'zbekistonning tog'li joylarida o'sadigan daraxtlardan biri bo'lib, u 1000 yoshgacha yashaydi. Po'stlog'i qalin, rangi kulrang, tanasining tusi qizg'ish-pushti bo'lib tovlanadi. Serbutoq, kam smolali, puxta, namga chidamsiz igna bargli daraxt. Undan qog'oz sanoatida, mebellar va

boshqa narsalar yasashda foydalaniladi. Yog'och o'ymakorligida qadimdan qo'llanib kelingan.

ARG'UVON (ruscha - lipa) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, kam yoriluvchan, yog'ochi yumshoq, oqish tusli bo'ladi. Uning yillik xalqalarini aniqlash qiyin. Arg'uvon kam chatnaydi, toblanmaydi, kesish oson. Hidsiz bo'lganligi uchun yog'och idishlar, bochkalar, sabzi taxtalari, chizmachilik taxtalari yasaladi. Yog'och o'ymakorligida arg'uvonning sakson-to'qson yilligi ishlatiladi.

BAQATERAK – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i silliq, rangi oq-ko'kish, tanasi to'g'ri bo'lmay sershox bo'ladi. Baqaterakning yog'ochi oqish tusli bo'lib, namga chidamsiz daraxt hisoblanadi. U qurilish ishlarida, o'ymakorlik, duradgorlik buyumlarini tayyorlashda ishlatiladi. Undan eshiklar tayyorlashda va panjara to'qishda keng qo'llaniladi.

YONG'OQ (ruscha - grecheskiy orex) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i ko'kimtir, qalin, silliq, yog'ochi qizg'ish kulrang tusli, qattiq va og'ir, qimmatbaho yog'och. Uning tanasini pastki qismida po'stlog'ining chatnog'i bor. Yong'oqning tabiiy guli chiroyli, ishlov berish qiyin bo'lsa-da yaxshi o'yiladi va yaxshi pardoatlanadi. Uning tarkibida yog' va yo'd moddasining mavjudligi yong'oqdan yasalgan buyumlarga o'zgacha chiroy va joziba baxsh etadi. Undan qimmatbaho mebellar tayyorlashda va yog'och o'ymakorligida keng-ko'lamda ishlatiladi.

ZARANG (ruscha - klyon) – qattiq yog'och turiga kirib, u qoramtir qizg'ish rangli, zich, puxta, mexanik xossalari jihatidan emandan ustun turadi. Tabiiy gullari chiroyli bo'lib, o'zgacha bir chiroy kasb etadi. Yillik halqalari bir oz bilinadi, ishlov berilishi bir oz qiyin, yaxshi o'yiladi va pardoatlanadi. Zarangning qush ko'ziga o'xshash tabiiy gullarining chiroyi boshqa yog'ochlardan ajratib turadi. Yog'och o'ymakor ustalari uning qush ko'ziga o'xshash gullarini hisobga olib qush ko'zi deb ham aytadilar. Yog'och o'ymakorligida, mebelsozlikda zarang xom-ashyolaridan tayyorlangan buyumlar qimmatbaho hisoblanadi. U mashinasozlik korxonalarida ham ishlatiladi.

MIRZATERAK (ruscha - topol) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, po'stlog'i sarg'ish, kam chatnagan va silliq bo'ladi. U kam shoxli, tanasi tik va to'g'ri, yog'ochi oq tusli, namga chidamsiz bo'ladi. Mirzaterak o'ymakorlikda va yog'och o'ymakorligida keng ishlatiladi.

NOK (ruscha - grusha) – bargli, mevali, qalin po'stloqli, chatnagan bo'ladi. Nokning yog'ochi to'q jigarrang, mo'rt, qattiq, yillik halqalari bilinar-bilinmas. Uning xodalaridan gul bosadigan qoliplar, randalangan fonerlar va qimmatbaho mebellar tayyorlanadi. O'ymakorlikda ishlatiladi.

TILOG'OCH (ruscha - litsvennitsa) – igna barglilar turiga kiruvchi ushbu daraxt o'ta og'ir, yog'ochi qattiq, qoramtir-sarg'ish rangli bo'lib, chiroyli ko'rinishga ega. Tilog'och namga chidamli, qarag'ay daraxtiga qaraganda 30% mustaxkam. U ortiqcha yog'li va smolali, o'yilishi biroz qiyinroq bo'lsa-da, chiroyli pardozlanadi. Po'stlog'i qalin, yillik halqalari aniq ko'rinadi, yog'ochi mayin qatlamli. Tilog'och ortiqcha yog'li va smolali bo'lganligi uchun tez chirishning oldini oladi, issiqda o'yma yuzasidan smolasi qo'yilib oqib chiqadi va o'ymaning sifatini bo'zadi. SHu va shu kabi tomonlari uni yog'och o'ymakorligida kam qo'llashga olib keladi. U asosan qurilishda ishlatiladi.

TOG' TERAGI (ruscha - osina) – yaproq bargli daraxt, po'stlog'ining rangi sarg'imtir, yupqaroq, tanasining pastki qismlarida chatnog'i bo'ladi. Tog' teragi yumshoq yog'ochlar turiga kiradi, yog'ochiga ishlov berish oson, yengil, tanasi oqish-sarg'imtir tusda, namga chidamsiz, yillik halqalari aniq ko'rinadi. Undan turli-tuman o'yinchoqlar, idishlar, gugurt qutilari va donalari, faner, har xil buyumlar tayyorlanadi. Qurilishda, eshik va romlar yasashda foydalanish mumkin. Yog'och o'ymakorligida namga chidamsizligi va juda tez chiriganligi uchun kam ishlatiladi.

CHINOR (ruscha - platan) – yaproq barglilar turiga kiruvchi ushbu daraxtning po'stlog'i qizg'ish-sariq tusli, tanasining rangi qizg'ish-qoramtir, ko'p shoxli, mustahkam va qattiq, pishiq-puxta, yupqa, silliq. Chinordan olingan yog'och materiallariga ishlov berish qiyin, yog'ochida tabiiy atlassimon gullari bor, loklanganda o'zgacha bir chiroy va joziba baxsh etadi. Yog'och tolalari

betartib bo'lganligi bois o'ymakor ustadan mahorat va sinchkovlikni talab etadi. O'yilganda o'yma sifatli va pardozi nafis chiqadi. Chinordan qimmatbaho mebellar va randalangan fanerlar tayyorlanadi. Yog'och o'ymakorligida keng-ko'lamda ishlatiladi.

SHUMTOL (ruscha - yasen) – yaproq bargli, kam yoriluvchan, qovushoq yog'ochli, och qizg'ish rangli, mustahkam, puxta, pishiq, tabiiy guli chiroyli va egiluvchan daraxt. Uning yog'ochiga ishlov berish qiyin, silliq randalanadi va pardoatlanadi. Yillik tolalari aniq ko'rinadi, bug'langanda esa yaxshi egiluvchan bo'ladi. Shumtolning yog'ochidan olingan materiallar faner tayyorlashda, vagonsozlikda, samolyotsozlikda, kemasozlikda qo'llaniladi. Uning yog'ochidan har xil asbob dastalari, sport buyumlari tayyorlanadi. Yog'och o'ymakorligida keng foydalaniladi.

O'RIK (ruscha - uryuk) – yaproq bargli daraxt. Mevali, tanasi qoramtir qizg'ish, qattiq va mustahkam. Uning yog'ochidan har xil mayda buyumlar, lavh, qutichalar tayyorlashda va inkrustatsiya ishlashda foydalaniladi. Yog'och o'ymakorligida keng ishlatiladi.

QARAG'AY (ruscha - sosna) - ignabarglilar turiga kiruvchi ushbu daraxtning po'stlog'i qalin, to'q jiggarang tusda bo'ladi. Uning yog'ochi puxta, yengil, smolali, oq-qizg'ish, namga chidamli daraxt. Qarag'ay tik va to'g'ri o'sadi, uning balandligi 30-40 metrgacha, yoshi 120-150 yilgacha bo'ladi. Uning yillik halqalari aniq ko'rinib o'ziga xos ko'rinishga ega. Qarag'ay yumshoq yog'och bo'lib, uni yorish, arralash, randalash, yelimlash, bo'yash, loklash, ishlov berish oson. U kemasozlikda, qurilishda, mebel ishlab chiqarishda va duradgorlikda ishlatiladi. Yog'och o'ymakorligida monumental ishlarda keng ko'lamda ishlatiladi.

QORA QAYIN (ruscha - buk) – yaproq barglilar turiga kiruvchan ushbu daraxtning tanasi sarg'ish-qizg'imtir tusli, tovlanadigan tiniq, yog'ochi og'ir, qattiq, qovushoq bo'lsa-da namga chidamsiz. Uning xodalarini radial qirqimi bo'yicha chiroyli, tabiiy gulli, yillik halqalari yirikroq va aniq ko'rinadi. Qora qayin egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun fanerlar, mebellar

yasashda, chizmachilik asboblari tayyorlashda qo'l keladi. Qattiq va mustahkam bo'lganligi uchun yog'och mix, parket polini ishlashda keng-ko'lamda foydalaniladi. Islimiy naqshlar qora qayin yog'ochidan juda nafis va chiroyli chiqadi. Qora qayin yog'och o'ymakorligida keng ko'lamda ishlatilib, asosan 100-105 yoshga kirganlaridan foydalaniladi. Bu yog'ochdan yasalgan buyumlar pardozlanib loklanganda ajib bir chiroy baxsh etadi.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan turli xom-ashyolar o'zining pishiqligi, nuqsonsizligi, qurt yemaganligi, rangining tiniqligi, mustahkamligi, loklansa yanada go'zal tovlanishi, ko'p yillar davomida yorilmasligi, buralmasligi, namga chidamliligi, pardozlanishi, o'yishda qo'porilmasligi va shunga o'xshash o'ziga xos hususiyatlarini hisobga olgan holda yasalayotgan buyumga mos keladigan materiallardan tanlash alohida ahamiyatga ega. Yog'och xom-ashyosidagi tabiiy go'zallik, chiroy yasalgan buyumga o'zgacha bir joziba bag'ishlaydi. Shu va shu kabi sifatlarni inobatga olgan ustalar yog'och xom-ashyosiga buyum yasashdan avvalroq ishlov berib, yillar davomida tayyorlab kelganlar.

2.2. Yog'och o'ymakorligida foydalaniladigan asbob – uskunalar

Yog'och o'ymakorligida asosiy ish quroli iskanalar bo'lib, ular tuzilishi va bajaradigan vazifalari jihatidan turlicha bo'ladi. Iskanalar ikki turga bo'linib *yo'nuvchi* iskanalar va *o'yuvchi* iskanalardan iborat. Yo'nuvchi iskanalar qo'l kuchi bilan yo'nib ishlanadigan, randa bilan ishlashning imkoniyati bo'lmagan joylarga ishlov berishda foydalaniladi. o'yuvchi iskanalar esa tashqi kuch ta'siri ostida ishlatiladi, ya'ni to'qmoq bilan urib ishlatilib, bu iskanalar yordamida yog'ochlarni teshishda, uychalar hosil qilishda, quloqchalar ochishda, asosan o'yma bezaklarni bajarishda foydalaniladi.

Yo'nuvchi iskanalar bilan o'yuvchi iskanalar bir-biridan tashqi ko'rinishi jihatidan, ya'ni dastalarining bir yoki ikki tomonidan halqasi bo'lishi, o'tkirlik burchaklari bilan farq qiladi. Yo'nuvchi iskanalarga tashqi kuch ta'sir etmaydigan bo'lganligi uchun faqat dastasining paski tomonida halqacha qo'yiladi hamda o'tkirlik burchagining kichik bo'lishi bilan ajralib turadi. Chunki, uning yo'nuvchi pichog'i yupqa bo'ladi. O'yuvchi iskanalarning esa kesuvchi pichog'ining qalinligi, tashqi kuch ta'sirida dastasining yorilib, titilib ketmasligini oldini olish, o'zoqroq ishlashini ta'minlash maqsadida ichki tomoniga temir halqachalar qo'yiladi.

Iskanalarning dastasi pishiq yog'ochlar, ya'ni qora qayin, qayrag'och, zarang, yong'oq, o'rik, shumtol va boshqa daraxt yog'ochlaridan tayyorlanadi. Iskanalar yog'och to'qmoq bilan urib ishlanadi. SHuning uchun ham iskanalarning dastasi pishiq yog'ochdan yoki plastmassadan tayyorlanmog'i lozim. Plastmassali dastalar tashqi kuchga ta'sirli, yorilishga chidamli bo'lib, bolg'a bilan urganda yorilib ketmaydi.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan iskanalar maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki ustalarning o'zlari yasaganlar. Xozirda yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan iskanalar metalsozlik korxonalarida tayyorlanadi. Yo'nuvchi va o'yuvchi iskanalarni charxlashga ham alohida e'tibor

qaratish lozim. Iskanalar bir tomonga qarab, o'ziga xos o'tkir burchak ostida charxlanishi lozim.

Yo'nuvchi va o'yuvchi iskanalarning bir necha xillari bo'lib, ular quyidagilardan iborat: oddiy to'g'ri iskana, zamin iskana, nova iskana, baliq sirti iskana, kovza iskana, kurakcha iskana, morpech iskana, chekma iskana, chuv iskana, qing'ir iskana va boshqalarni tashkil etadi. Iskanalar o'zining to'zilishi va ko'rinishiga qarab turlicha vazifalarni bajaradi.

Oddiy to'g'ri iskana – to'g'ri sterjen kesgichli bo'lib, tig'ining eniga qarab kichkina, o'rtacha va katta bo'ladi. Oddiy to'g'ri iskana tig'ining eni 1,7 mm dan 30 mm gacha bo'ladi. Mazkur iskana yo'nishda va o'yishda ishlatilib, ko'pincha girih, guli girih naqshlarini kesishda va zaminini o'yishda, tekislashda ishlatiladi.

Kurakcha iskana – kesadigan tig'ining uchi bir tomonga qiya holatda bo'lib, u kurakcha ko'rinishda bo'ladi. Kurakcha iskanalar katta-kichikligiga qarab turlicha bo'ladi. Kurakcha iskanalar ensiz zanjira, hoshiya naqshlarini o'yishda, zaminsiz o'ymani bajarishda ishlatiladi. Yo'nuvchi va o'yuvchi bu asbob bilan ishlashda iskananing sterjenini o'ng qo'lda, dastasini chap qo'lda ushlab, tasvir yoki naqsh chizig'ini ustidan kerakli chuqurlikda sanchgan holda o'ymakor usta o'zi tomonga tortib kesib boradi.

Zamin iskana – o'ymaning zaminini o'yib olishda ishlatiladi. Zamin iskananing eni 2 mm dan 10 mm gacha bo'ladi.

Baliq sirti iskana – tig'i botiq, kamalaksimon ko'tarilgan, baliq qovurg'asi shaklida bo'ladi. Ushbu iskana baliq tangalari ko'rinishidagi o'ymalarni amalga oshirishda ishlatilib, o'ymaga o'zgacha ko'rk baxsh etadi. Baliq sirti iskana keskichining eni 4 mm dan 19 mm gacha, katta-kichikligiga qarab uning kichik, o'rtacha va katta turlari bo'ladi.

Morpech iskana – o'ymaning chetlaridagi hoshiya, zanjira, yarim doiralar va nuqtalarni chiqarishda qo'llaniladi.

Chekma iskana – o'yilgan naqsh zaminini patir yuzasiga o'xshatib chekmalab o'yib chiqishda ishlatiladi. U o'yilgan naqshlarni aniq ko'rinishi, zaminini bir tekisda chiqishi va o'ziga xos badiiy ko'rinishini ta'minlash uchun

ishlatiladi. Ishlatish joyiga qarab bir tishli, uch tishli, besh tishli, o'n olti tishli chekma iskanalar bo'ladi.

Chekma qalam – o'yma naqshning zaminini chakichlab chiqish uchun ishlatiladigan asbob. Bu asbob yog'och banddan va o'zun temir sterjendan iborat. Chakichlar bir qatorli, ikki qatorli va uch qatorli bo'lib, har bir qatorida 2, 3, 4, 5 va hokazo bo'rtma tishli bo'lishi mumkin. Chekma qalamda chakichlangan naqsh aniq, mayin va yanada nafis ko'rinishga ega bo'ladi.

Yog'och o'ymakorligida buyumlarni o'yib bezashda asosiy asbob-uskuna, ya'ni iskanalardan tashqari yordamchi asboblardan ham kerak bo'ladi. Qalam, sirkul, chizg'ich, o'chirg'ich, jilvir qog'ozi, knopka, duradgorlik dastgohlari, bolg'a, yelim va boshqalar shular jumlasidandir.

QALAM (arabcha) – o'rtasiga ingichka, o'zun ko'mir, grafit, qo'rg'oshin, quruq bo'yoqdan qilingan qotishma joylangan cho'p shaklidagi yozuv asbob. Qalam asosan yozish, rasm solish hamda chizmachilik uchun ishlatiladi. O'rta Osiyoda hattotlar siyoh bilan yoziladigan qamishlardan foydalanganlar. Chex olimi Y.Graxmut maydalangan grafit va gil aralashmasidan yozuv sterjenlar tayyorlashni taklif qilib, ishlab chiqarishga asos solgan. Yog'och qalamlar ishlash joyi va hususiyatiga qarab grafitli, rangli va boshqalarga bo'linadi, shuningdek ular joyiga qarab ishlatilishi bilan ham ajralib turadi. Grafit qattiq va yumshoqligiga qarab uch turga bo'linadi. Qattiq qatlamlar T, 2T, 3T, yoki N, 2N, 3N; yumshoq qalamlar M, 2M, 3M, 4M yoki V, 2V, 3V; o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlar TM yoki NV, G' harflari bilan belgilanadi.

CHIZG'ICH (ruscha - lineyka) – to'g'ri chiziq chizish uchun ishlatiladigan silliq asbob bo'lib, o'quv va idora ishlarini bajarishda foydalaniladi. Chizg'ich o'lchash yoki hisoblash uchun ishlatiladigan santimetr va millimetrlarga bo'lingan bo'ladi.

PARGOR (ruscha - sirkul) – bir uchi sharnirli biriktirilgan ikki yoqli chizmachilik asbobi bo'lib, bir uchida qalam sterjen, ikkinchi uchida nina sterjen o'rnatilgan bo'ladi. Bu asbob o'lchash, aylana va yo'ylar chizish uchun ishlatiladi.

O'CHIRG'ICH (ruscha - rezina) – yozilgan yoki chizilgan narsani o'chirish uchun ishlatiladigan maxsus rezina bo'lagi. U naqsh kompozitsiyalar chizishda ortiqcha chiziqlarni o'chirish uchun qo'llaniladi. Qalamda chizilgan chiziqlarni yumshoq oq yoki ko'k o'chirg'ichda, siyoh yoki tush bilan chizilgan chiziqlarni esa tarkibida maydalangan qumi bo'lgan qizil o'chirg'ichda o'chiriladi.

KNOPKA (ruscha - gollandcha) – keng qalpoqchali, bosma mixcha bo'lib, qog'oz, mato va shu kabilarni qattiq narsaga mahkam qadab qo'yish uchun ishlatiladi.

JILVIR QOG'OZ – buyumlarning sirtini silliqlash, sayqallash, jilolash uchun ishlatilib qayroq qum qoplagan qog'oz yoki mato hisoblanadi. Shuningdek, tabiiy va sun'iy abraziv materiallar, ya'ni tog' jinslari kvarts, qum, korund, shisha, gemotit va boshqalarni maydalab mato yoki qog'ozga yopishtirib tayyorlangan maxsus material. Jilvir qog'ozlari mayda yoki yirik donali bo'ladi. Jilvir donachalariga qarab 12, 16, 20, 24, 36, 60 va hakkazo nomerli bo'ladi.

Ma'lumki, yog'och o'ymakorligida yog'ochlarning ishlov berishga tayyorlashda turli elimlardan foydalaniladi.

Elim (fors - tojikcha) – suyuqlangan yuqori molekulyar anorganik va organik moddalar yoki ularning eritmalari bo'lib, turli materiallarni bir-biriga yopishtirish uchun ishlatiladi.

Elimlar tabiiy, sun'iy hamda rezina yelimlarga bo'linadi.

Tabiiy yelimlar – hayvonlar (suyak, sut, teri, pay va boshqa) va o'simliklar (daraxtlar shiralari, kraxmal qipiqlarni qayta ishlash natijasida) mahsulotlaridan olinadi. Namlikka ancha chidamsiz.

Sun'iy yelimlar (smolalar) – polimerlar emultatsiyasi, shuningdek, erituvchi qo'shilgan va qo'shilmagan smolalar birikmalaridan iboratdir. Turli materiallar, shisha, plastmassa, metall, chinni, penoplast, suyak, qog'oz va boshqalarni biriktirishda keng ko'lamda ishlatiladi. Issiq, sovuq, namlik, ishqalanish, egilish, buqilish va siljish kuchlanishlariga yaxshi chidaydi.

Rezina (kauchukli) yelimlar – o'z o'rnida tabiiy va sintetik yo'l bilan olinadigan turlarga bo'linadi. Ushbu yelimlarning tabiiy yo'l bilan olinadigani

kauchuk daraxti smolasidan, sintetik yo'l bilan olinadigani esa rezinali birikmalarning erituvchilarda (benzin, kerosin, spirt) erigan ko'rinishidir. Turli jinsdagi materiallarni, masalan, yog'ochni tsementga, metallni shishaga, gazlamani plastmassaga biriktirishda ishlatiladi.

Yog'ochsozlikda, duradgorlikda, o'ymakorlikda ko'pincha hayvon yelimlaridan kazeinli yelimlar ishlatiladi. Namlikka chidamli kazein (lot-kasgeis-pishloq) – murakkab oqsil bo'lib, kimyoda fosfoproteid to'zilishini namoyon qiladi. Sutning ivishi jarayonida uning tarkibidagi kazeinogendan hosil bo'ladi. To'zli, ishqorli muhitda eriydi.

Yog'och o'ymakorligida taxtalarni o'ymakorlikka tayyorlashda bir-biriga biriktirilib, o'yiladigan buyumning asosi tayyorlab olinadi. Taxtalarning o'yiladigan yuza qatlami silliqqlanib, tobga keltiriladi. Avvaliga mayda tishli arrada arralanadi, keyin esa mayin burrada arralanadi. Tekis qilib randalanadi va bir-biriga tekkizib, mayda tirqishlari yo'qligiga ishonch hosil qilinadi, shundan so'nggina taxtalar birlashtirilib, pardoatlanadi. Pardoatlanishda mayda qumli jilvir qog'oz, baxmal bilan artiladi. Shundan so'ng yelimlash jarayoni amalga oshiriladi va taxtalar biriktiriladi. Yopishtirilayotgan yuza oralig'ida qirindi yoki bo'shliq qolmaganligiga ishonch hosil qilish uchun bir-biriga bir necha martalab ishqalab yuboriladi.

III BOB. YOG'OCH O'YMAKORLIGI MASHG'ULOTLARIDA BUYUMLARGA BADIY ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI

3.1. Kasb-hunar kollejlarda yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida o'quvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish

Innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashdir.

Olimlar innovatsion jarayon mikroto'zilasini tahlil qilishda hayotning davriyligi kontseptsiyasini farqlaydilar.

Bu kontsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik kontseptsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro tasirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. SHuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik tadqiqotchilarning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi **shartli yangilik** hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret ob'ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Kasb-hunar ta'limida **innovatsion faoliyatning sub'ekti** o'qituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini- o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri **o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish**.

Bunday yo'nalish o'quvchilarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

Demak, o'qituvchining innovatsion faoliyati to'zilmasi motivatsion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir.

Innovatsion faoliyat to'zilmesi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me'yorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.

Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o'qituvchi va o'quvchining ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funktsiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi

Yangilik pedagogik yangilik me'yorl sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yorl o'qituvchi va o'quvchining natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

3.2. Kasb-hunar kollejlarda hajmli buyumlarga badiiy ishlov berish texnologiyasi

Yog'och o'ymakorligida yog'ochni yasalayotgan buyumga mos keladigan sifatlisini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'tmishda o'ymakor-ustalar bunga alohida ahamiyat berib, yillar davomida tayyorgarlik qilib borganlar. Daraxtlarni kesib xodasining ikki tomoniga, ya'ni kesilgan joyiga qog'oz yopishtirib maxsus tayyorlangan suv havzalariga tashlab, bir necha yil saqlaganlar. So'ng uni olib quritishda quyosh nuri tushmaydigan, salqin joyda quritgan. Bu yog'och xom-ashyosini yorilishdan saqlash bilan bir qatorda namga, har xil chirishlarga bo'lgan chidamliligini oshirgan.

Yog'och xom-ashyosining tabiiy guli buyumga o'zgacha bir tarovat berib turadi. Ota-bobolarimiz buni e'tibordan chetda qoldirmaganlar. Quritilgan yog'ochni bug'doy, arpa yoki sholi yanchilganda poyalarining maydalanishidan hosil bo'lgan somonidan foydalanib, taxtani unga ko'mib qo'yganlar. Somon o'zidan issiqlik chiqarib taxta yuzasini qizartirib tabiiy gul hosil qilgan.

Buyum yasashda u qaerlarda va qay maqsadda foydalanishiga ham e'tibor qaratish lozim. Biz quticha yasash ustida to'xtalib o'taylik. Quticha yasash uchun eng qulay yog'och xom-ashyosi qora qayin, yong'oq va zarang materiallari deb aytishimiz mumkin. Uning o'lchamini esa taxminan eni 10 *sm*, bo'yi 20 *sm*, balandligi 6 *sm* qilib olamiz.

Kerakli o'lchamda taxtachalar arralab tayyorlangach, jilvir qog'ozda silliq lab olinadi. Ularni biriktirishda esa yashirin birikmani qo'llagan holda biriktirishimiz mumkin. Biriktirib olganimizdan so'ng burchaklarini, bir-biriga ulangan joylarini ko'zdan kechirib, yana bir marotaba jilvirlab chiqiladi.

Naqsh kompozitsiyasi to'zishdan oldin, yasalgan buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan, turli burchakli va to'g'ri chizg'ichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (tsirkulь) va boshqa bir qator asboblardan kerak bo'ladi.

Buyum o'lchami aniq o'lchab olingandan so'ng, buyum uchun qanday naqsh kompozitsiyasi to'zilsa buyum yanada ko'rkamroq, go'zal va jozibador chiqishligini ko'z oldiga keltirgan holda fikr yuritish lozim. Bunda kompozitsiya to'zuvchining dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatliligi va didining yuqori darajadiligiga bog'liq. Demak, bir to'xtamga kelgach xitoy qog'oziga naqsh kompozitsiyasi chiziladi.

Kompozitsiya to'zishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini e'tiborga olish alohida ahamiyatga ega. Yumshoq materialdan olingan bo'lsa yirikroq, qattiq materialdan olingan bo'lsa maydaroq, murakkabroq naqsh kompozitsiyalaridan foydalanish mumkin.

O'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiatni va voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning aynan o'zidan stillashtirilgan tarzda olingan. Odatda o'simliklar bir tomonga qarab o'sadi, bu tabiat qonunidir. Masalan, majnuntol misolida ko'radigan bo'lsak, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyulsa-da, lekin haqiqatdan esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishiga qarab o'sadi. Tabiatning bu qonuni naqshda ham o'z aksini topgan.

Naqqosh ustaning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog'oz betini to'ldirish yoki o'yma yuzini o'yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun - qoidalarga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuqtai - nazardan olib qaraganda o'ymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda to'ziladigan bo'lsa, u holda hoh o'yishda bo'lsin yoki pardoz berishda bo'lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko'ngildagidek go'zal va jozibador chiqmaydi.

Daf'atan qaraganimizda o'yma naqsh juda chiroyli, go'zal va jozibador ko'rinsa-da, lekin bir ozdan so'ng naqsh kompozitsiyasi to'zishda qo'yilgan xato

va kamchiliklar, nuqsonlar yaqqol sezilib qoladi. Mohiyatan olib qaraganimizda kompozitsiya nima o'zi?

KOMPOZITSIYA – ruscha-lotinchacha so'zdan olingan bo'lib, adabiy asar yoki san'at asari qismlarining to'zilib, joylashishi va o'zaro munosabati hamda tarkibiy qismlari ma'no jihatidan o'zaro bog'lanib birlik tashkil etgan badiiy yoki tasviriy san'at asari tushuniladi. Kompozitsiya ishlashda ritm, simmetriya, asimmetriya, kompanovka, taqsim, davriy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyliligi va pardozlarning bir-biriga uyg'unligi kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

KOMPA NOVKA, ya'ni joylashtirish – chizish kerak bo'lgan naqsh kompozitsiyasini yoki tasvirni qog'oz, o'yma uchun tayyorlangan taxatacha, buyum yoki tasvirni tushirish lozim bo'lgan yuzaga to'g'ri joylashtirish demakdir.

TAQSIM (ruscha rapport) – frantsuzcha so'zdan olingan bo'lib, naqshning ma'lum bir shaklda takrorlanuvchi qismi, bo'lagi hisoblanadi. Markaziy Osiyo naqshlari o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, naqshlarning deyarli hammasi takrorlanuvchi ma'lum bo'lakdan, qismdan iboratdir. o'ymakor-naqqoshlar avval taqsim yuzini qog'ozga belgilab, naqsh kompozitsiyasining bir qismini chizadi va axtasini, ya'ni ulgusini tayyorlaydi. O'ymakor-naqqosh bezatiladigan yuzaga shu axta yordamida naqshni takrorlab tushirishi natijasida naqsh kompozitsiyasi yaxlit holga keladi. Naqsh kompozitsiyasining takrorlanuvchi qismi har xil bo'ladi. Masalan, uchburchak, to'rtburchak, kvadrat va hakkazo ko'rinishda bo'lishi mumkin. Doira yoki gumbazga o'xshash buyum yuzasiga mo'ljallangan bo'lsa naqsh taqsimi kompozitsiya yuzining to'rtidan, oltidan, sakkizdan, o'n ikkidan va hakkazo qismlarini tashkil etib, taqsim doirada yonma-yon takrorlanadi. Bunday taqsimni aylana taqsim deb ham atashadi. Taqsim to'g'ri chiziq bo'yicha takrorlansa uni to'g'ri taqsim deb yuritiladi. Taqsim to'g'ri va oynada aksi ko'ringandek shaklda almashlab takrorlansa unda chapu-rost taqsim deyiladi. Bunday ko'rinishdagi taqsimlar juda keng tarqalgan.

SIMMETRIYA – ruscha-grekcha soʻzdan olingan boʻlib, biror narsaning maʼlum nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan qarama-qarshi tomonda joylashgan qismlari oʻrtasidagi munosiblik, oʻxshashlik, moslik, uygʻunlik tushuniladi.

ASIMMETRIYA – ruscha-grekcha soʻzdan olingan boʻlib, simmetriya yoʻqligi yoki boʻzilganligi, simmetriyasizlik, yaʼni toʻzilgan kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalar muvozanatining boʻzilganligi tushuniladi.

RITM – ruscha-grekcha soʻzdan olingan boʻlib, biror hodisa, ish-harakat yoki naqsh kompozitsiyasi elementlarining maʼlum tartibda vaqt oraligʻida oʻlchovli ravishda bir tekis takrorlanib turishidir. U naqshdagi harakatning oʻzluksiz va goʻzal koʻrinishini taʼminlaydi.

STILIZATSIYA – tabiatdagi nabotot, hayvonot olami va shu kabilarning tasviri, rangi, shakli va toʻzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir.

Naqsh kompozitsiyasi chizishda quyidagilarga eʼtibor qaratish va amal qilish kerak boʻladi:

Birinchidan, tanob yoki novda tagida gul, gʻuncha yoki bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas, yaʼni: naqsh kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va shakl beuvchi chiziq hisoblanadi;

Ikkinchidan, tanob bilan novdani farqlab tasvirlash;

Uchinchidan, taqsimda ortiqcha naqsh elementlarini chizishga yoʻl qoʻymaslik;

Toʻrtinchidan, tanobdan hech qachon gul, novda, gʻuncha va boshqalarni oʻsib chiqqan holda tasvirlamaslik;

Beshinchidan, naqsh elementlari nisbatini saqlay bilish;

Oltinchidan, toʻzilgan naqsh kompozitsiyasining yogʻoch oʻymakorligiga moslab toʻzilishini taʼminlash;

Ettinchidan, naqsh zichligiga eʼtibor berish;

Sakkizinchidan, naqsh orasidagi zamin boʻshliqlar nisbatini saqlash va hokkazolarni eʼtibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Buyumdan olingan oʻlchamga moslab naqsh kompozitsiyalaridan bir nechtasi chizib mashq qilinadi. Chizilgan naqsh kompozitsiyalaridan eng munosibi

tanlab olinib, chetiga zanjiraldan birini hoshiya sifatida qo'llash ham mumkin. Agar zanjira qilinmasa chetidan albatta ramka qoldirish zarur. Ramkasiz naqshni bezalmagan uyga qiyos qilish mumkin.

Kompozitsiya to'zishda naqsh elementlari hoshiyaga tekizilmaydi. Bu naqsh kompozitsiyasi alohida ajralib o'ziga xoslikka ega bo'lishligi bilan bir qatorda joziba baxsh etadi. Bunga turinj, namoyon, kvadrat va boshqa tugallangan naqsh kompozitsiyasi to'zishda ayniqsa ahamiyat qaratish lozim.

Tuzilgan naqsh kompozitsiyasini kalka (xitoy qog'oz) yoki shaffof qog'oz) ga ko'chirib axta (ulgi) tayyorlanadi.

AXTA – tayyor rasmni shaffof qog'ozga chizib, chiziq yo'llarini igna sanchib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlanadigan andozadir. Ilk davrlarda ustalar o'yma yuzasiga to'g'ridan-to'g'ri chizib, o'yib ketganlar. Keyinchalik esa axta orqali tasvirni tushirish qulayligini sezishgan va undan foydalanib kelganlar.

Axta tayyorlash uchun buyumning o'yma bajariladigan yuzasiga mo'ljallab yupqa shaffof qog'oz olinadi. Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o'qi bo'ylab shaffof qog'ozni ikkiga, to'rtga va hokkazolarga buklanadi. Buklangan shaffof qog'ozning bir qismiga naqsh kompozitsiyasi chiziladi. Naqsh chizilgan shaffof qog'ozni yumshoq yostiq ustiga qo'yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshning yirik-maydalagiga qarab igna tanlanadi va igna teshigi oralig'i naqshning mayda yoki yirikligiga qarab teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa tayyor bo'lgandan so'ng, shaffof qog'oz yozib yuboriladi va bir butun kompozitsiyasini ko'rish mumkin. Tayyor bo'lgan axtani o'yma yuzasiga qo'yib ustidan xoka urib yoki bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh nusxasi buyum yuzasiga ko'chiriladi.

Ko'chirilgan naqsh nusxasini o'yishda yog'och o'ymakorligida turli asboblarda ishlatilib, ularning har biri o'ziga xos ishlarni bajaradi. Yog'och o'ymakorligida asboblarda ikki turga bo'linadi, ya'ni naqshni o'yish uchun "o'yma qalamlar" va ikkinchisi "naqsh qalamlar"dir.

Iskanalar shakli va bajaradigan ishiga qarab ularning bir qancha turlari mavjud. Masalan, to'g'ri iskana, kovza iskana, nova iskana, zamin iskana, baliq

sirti iskana, morpech iskana, chekma iskana, kurakcha iskana, chekma qalam va boshqalar kiradi. Odatda yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan iskanalarni maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki o'ymakor ustalarning o'zlari tayyorlaganlar. O'yish bosqichlari esa biz avvalgi mashg'ulotlarimizda ta'kidlab, amalda ko'rganimiz kabi ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

O'ymakorlik ishlarini amalga oshirib bo'lgach, albatta, so'nggi pardozlash ishlari bajariladi. Xalq amaliy bezak san'ati turlari zargarlik, ganchkorlik, misgarlik, kulolchilik kabi yog'och o'ymakorligida ham buyumga oxirgi ishlov berish, pardoz berish, jilolashdan iboratdir. Masalan, yog'och o'ymakorligida umuman 6 ta pardoz turi mavjud bo'lib, ular qirma, chizma, pax, choka, lo'la va tabaqa pardoz turlariga bo'linadi. SHularga 4 xili, ya'ni pax, choka, lo'la va tabaqa pardozlari rel'efga pardoz berishda ishlatiladi. Ushbu pardoz turlari 2 ga bo'linib oddiy (pax va choka) va murakkab (lo'la va tabaqa) pardoz turlarini o'z ichiga oladi.

XULOSA

Murakkab o'tish davrining vazifalari o'ta mas'uliyatli bo'lib, bu davrda yo'l qo'yilgan har bir xato ko'plab yanglishishlarga, oqibatda katta qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Har qanday vaziyatda ham ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aql-idrok bilan oqibatlarini to'la va to'g'ri hisobga olib hal etmoq kerak.

Prezidentimiz Islom Karimovning sabr-toqat, donolik, o'zoqni ko'ra bilishlik, adolat asosida olib borayotgan siyosati o'zining ajoyib samaralarini bermoqda. Ma'naviyatga e'tibor mavsumiy vazifa emas, balki muntazam davom etadigan uzluksiz jarayondir. Shu sababli ham O'zbekistonda ma'naviyat muammolariga e'tibor kun sayin kuchayib bormoqda. Ma'naviyat masalalariga oqilona, aniq sharoitni hisobga olib yondashish komil insonni tarbiyalashning yangi yo'llarini izlashdir. Buyuk mutafakkir Bedil aytganidek, me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, binoning boshi yulduzlarga yetsa ham, u qiyshiq bo'lib qolaveradi. Bu fikr birinchi navbatda ta'lim, tarbiya ishlariga taalluqlidir. Ma'naviy kamolot, ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash hozirgi kunda eng dolzarb masala bo'lib turibdi.

Ma'naviyat taqdirning ehsoni, insonning tug'ma xususiyatni emas. Ma'naviyat faqat insonga xos fazilat bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanadi. Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyatning ijtimoiy mohiyati ustida alohida to'xtab, u «insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi» deydi.

Ma'naviyatning bepoyonligi va cheksizligi tarixiy taraqqiyotning uzluksizligi bilan belgilanadi. Bu taraqqiyot bosqichlari o'rtasidagi bog'lanishlar vorislik, tobora yuksaklik sari intilish bilan bog'liq. Konkret tarixiy sharoitda yashagan inson bu uzluksiz, cheksiz jarayonning barcha qirralarini to'la qamrab ololmaydi. Ma'naviyat umuminsoniy fazilat bo'lgani sababli har bir shaxs ongida ma'lum tomonlarinigina aks ettira oladi. Ma'naviy kamolot ayrim shaxslarni emas, balki jamiyat a'zolarini qamrab olgandagina katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy kamolot ma'naviy ehtiyojlarning mazmuni va darajasi bilan bog'liq.

Jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi asosiy kuch — iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy taraqqiyot zaruriyatlari bilan belgilangan, ma'naviyat bilan mushtaraklashgan ehtiyojdir. Ehtiyoj bo'lmagan joyda hech kanday taraqqiyot va yuksalish bo'lmaydi. Ehtiyojning o'zi ham ma'naviyatlilik darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi rivojlanishning oxirgi nuqtasi bo'la olmaganidek, ma'naviy rivojlanishning ham so'nggi chegarasi bo'lmaydi. Ma'naviy kamolotning har bir bosqichi konkret davrlarning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan belgilangan. Ma'naviyat borasidagi har bir ehtiyoj ro'yobga chiqishi o'z navbatida yangi, yanada kengroq ehtiyojlar shakllanishi uchun zamin bo'ladi. Binobarin, ma'naviyatning yangi cho'qqilariga yetish ehtiyoji shaxs va jamiyat kamolotining hal qiluvchi omili sifatida inson faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy kamolotga ehtiyoj biror chegaraga borib tugallanmaydi ham.

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati o'zluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs-fuqaroning tashkil topishni ko'zda tutadi. U ushbu ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarining ist'emoilchisi, buyurtmachisi sifatida va xuddi shunday ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirok etadi.

Shaxs ta'lim jarayonining ishlab chiqaruvchisi sifatida ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmatlar sohasi faoliyatida bilish va tajribalarni berishda ishtirok etadi. Respublikamizda shaxsga o'zining ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun professional ta'lim dasturini tanlash huquqini bergan.

Xulosa qilib aytganda, kelgusida kasb-hunar kollejarilarida amaliy san'atning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmish yooch o'ymakorligi san'atini o'rgatib borishimiz lozim. Bu o'sib kelayotgan yosh avlodga hunar sirlarini o'rgatish bilan birga o'z galar mehnatini qadrlash, milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga sadoqat, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – T., «Toshkent oqshomi» gaz. 1997 yil, 2 aprel, 38 son
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston. 1992 y.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat. 2008 y.
4. Karimov I.A. Demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19 – jild. –T.: O'zbekiston. 2011 y
5. Abdirasilov S.F., Boymetov B.B., Tolipov N.X. Tasviriy san'at. –T.: Ilm ziyo, 2010 y.
6. Ahmedov M.B. Yog'och o'ymakorligi. –T.: Iqtisod–Moliya, 2007 y.
7. Bulatov S.S. «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati», -T., «Mehnat» 1991 y.
8. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994 y.
9. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Badiiy ta'limning falsafiy asoslari (monografiya). –T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
10. Bulatov S.S., Shobaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2010 y.
11. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007 y.
12. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyoshunoslik. –T.: SHarq. 2007 y.
13. Zohidov P.SH. «Me'mor olami» -T., Qomuslar bosh tahririyati, 1996 y.
14. Yo'ldoshev I., Mirsagatova N. Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi – taraqqiyotning mustahkam garovi. –T.: TDPU, 2012 y.
15. Mirsagatova N. Talaba-yoshlarda ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni. –T.: TDPU, 2011y.
16. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2007 y.

- 17.Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. –T.: Iqtisod-Moliya, 2007 y.
- 18.O’ralov A.S. va boshqalar. Mo’jiza yaratish san’ati. –T.: Mehnat, 1996 y.
- 19.Qayumov N.R., Bulatov S.S. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: Iqtisod-Moliya, 2010 y.
- 20.G’ulomov K.M. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: Bilim, 2004 y.
- 21.G’ulomov K.M. Amaliy san’at. –T.: Iqtisod-Moliya, 2007 y.

1-ILOVA. INGLIZCHA VA O'ZBEKCHA LUG'AT

1.	ability	iqtidor, iste'dod
2.	career	martaba; karera: kasb
3.	career choice	kasb tanlash
4.	college of education	pedagogik kolledj
5.	drill	mashq
6.	duty	burch, vazifa
7.	early childhood education	maktabgacha ta'lim
8.	education	ta'lim
9.	educational institution	ta'lim muassasasi
10.	educational level	ta'lim darajasi
11.	educational process	ta'lim jarayoni
12.	habit	ko'nikma
13.	handout	tarqatma material
14.	head of a department	kafedra mudiri
15.	head teacher	katta o'qituvchi
16.	human rights	inson huquqlari
17.	innovation in education	innavatsion ta'lim
18.	institute of educational research	pedagogik tadqiqot instituti
19.	instruction in the native language	o'quvchilarni ona tilida o'qitish
20.	judgement	mulohaza, baho
21.	library	kutubxona
22.	logical thinking	mantiqiy fikrlash
23.	lyceum	litsey
24.	leadership	boshqaruv
25.	main subject	asosiy o'qitiladigan fan
26.	manual	ma'lumotnoma, qo'llanma, darslik
27.	pedagogy/pedagogics	pedagogika
28.	period	akademik soat
29.	personal development	shaxsni rivojlanishi
30.	psychology	psixologiya
31.	qualification	malaka, ixtisos, kasb
32.	qualified teacher	malakali o'qituvchi
33.	scientific research	ilmiy izlanish, ilmiy ish
34.	school leaver	bitiruvchi, abituriyent
35.	scientific	ilmiy
36.	secondary education	o'rta ta'lim
37.	secondary school	o'rta maktab
38.	sense	mazmun, mohiyat
39.	session	yig'ilish
40.	skill	mahorat

2-ILOVA. BITIRUV MALAKAVIY ISHI MAVZUSIGA OID LUG'AVIY TERMINLAR

ALIFMOY (ruscha - *olifa*) – alif moy (to'g'ri yozilishi shu shaklda) zig'ir yog'dan qizdirib tayyorlangan va bo'yoqchilikda ishlatiladigan moy.

BO'YOJ - 1. Bo'yash, rang berish uchun ishlatiladigan modda; kraska.

2. Nutqni, tasvirni bezatuvchi ifoda vositalari.

ZIG'IR – 1. Poyasidan tola, urug'idan yog' olinadigan bir oylik o'simlik.

2. Shu o'simlikning urug'i, hosila.

LOYIHA (atabcha) – 1. Bino, inshoot, mashina va shu kabilarni qurish yoki tiklash uchun ishlangan chizma, reja; proekt.

2. Jaror, farmon, qonun va shu kabi xujjatlarning dastlabki xomaki teksti; proekt.

MARKA (ruscha < nemischa) – 1. Po'chta haqi va boshqa xil davlat yig'imlarini to'laganligini ko'rsatuvchi, narxi yozilgan, odatda biror tasvir tushirilgan to'rtburchak qog'ozcha.

2. To'lanadigan haqning belgisi, nishoni.

3. Mol, tovarga qo'yilgan tamg'a.

4. Mol, tovarning navi, xili.

MASSA (ruscha < latincha) – 1. Mexanikaning eng muhim fizikaviy xossalaridan biri, materiyaga xos vazminlikni, inertsianixarakterlaydigan miqdor.

2. Yaxlit yoki bo'tqasimon jism yoki modda.

LOK (fors - tojikcha) – smolani spirtida eritib hosil qilinadigan, buyumlarni yaltiratish, pardozlash uchun ishlatiladigan suyuqlik.

RELEF (ruscha < frantsuzcha) – 1. Er sirtidagi turli noteksliklar-balandlik, pastlik, tog' va shu kabilar yig'indisi.

2. Bo'rtma naqsh.

SMOLA (ruscha) – ignabargli va boshqa ba'zi bir o'simliklardan ajralib chiqadigan, havoda qotib qoladigan elimkash modda; shira.

SMOLALI – smola beradigan; sersmola.

TEXNIKA (ruscha < grekcha) – 1. Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan mehnat qurollari-mexanizm, apparat, moslama va shu kabilar majmui, shuningdek ularni o'rganish, qo'llash, takomillashtirish sohasidagi inson faoliyati.

2. Biror ish yoki harakatni bajarish yo'llari, usullari majmui; shu usullarni egallaganlik, mahorat darajasi, san'at, mahorat.

TEXNOLOGIYA–1.Ishlab chiqarish protsesslari, usul va vositalari haqidagi bilimlar majmui.

2. Ishlab chiqarishning biror sohasida materiallarga ishlov berish yoki qayta ishlashda qo'llaniladigan usullar, operatsiyalar majmui.

TUS –Rang-bo'yoqning bir-biridan ko'rinishi bilan farq qiladigan har bir ayrim turi.



YOG'OCH O'YMAKORLIGI LAGANI



YOG'OCH O'YMAKORLIGI QUTICHASI



YOG' OCH O'YMAKORLIGI QUTICHA QOPQOG'I




YOG'UCH O'YMAKORLIGI KURSISI



YOG'OCH O'YMAKORLIGI KO'ZASI



YOG'OCH O'YMAKORLIGI 6 RAHLI KURSI



YOG' OCH O'YMAKORLIGI LAVHI